

T.H.ASADOV

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI FANIDAN  
MASHQ ISHLANMALARI**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI**

**T.H.ASADOV**

**HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILI FANIDAN  
MASHQ ISHLANMALARI**

Leksikologiya va morfologiyaga oid  
metodik qo`llanma

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri

**Buxoro, "Durdona" nashriyoti,  
2022-yil**

Asadov T. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan mashq ishlanmalari. Leksikologiya va morfologiyaga oid metodik qo'llanma. 2022.

Mazkur metodik qo'llanma ta'lim tizimining amaldagi o'quv dasturlari asosida tuzilgan. Qo'llanmadan leksikologiya hamda morfologiya yuzasidan mashq va topshiriqlar tizimi, shuningdek, mavzuni mustahkamlovchi savollar va foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati o'rin olgan. Mazkur metodik qo'llanmadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Metodik qo'llanma filolog talaba va magistrlar, o'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey o'qituvchilari va o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi **A.Axmedov**  
BVXTXQTMOHM katta o'qituvchisi **F.Hazratova**

Mazkur qo'llanma BuxDU o'quv-metodik kengashi yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan( ).

## SO`ZBOSHI

Barcha fanlar qatori ona tili ta'limi ham asosiy darsliklardan tashqari qo'shimcha metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar, turli qo'llanmalar, namunaviy dars ishlanmalari, test, dars mashg'ulotlarini interfaol usullarda o'tish borasidagi tavsiyalarga ehtiyoj sezadi. Bu esa bugungi kun kognitiv ta'limiga qo'yilgan talablardan asosiysi sanaladi.

Ona tili ta'limi uchun yordamchi manbalarning yetarli bo'lmasligi, ta'lim jarayonini boyituvchi qo'shimcha adabiyotlarning kemtikligi dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu borada qilingan ishlar – ona tili darslarini yuqori saviyada o'tish borasidagi tavsiya va ko'rsatmalar, namunaviy dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, ona tili fani doirasidagi ma'lumotlar banki, ayrim o'quv lug'atlari yaratilayotgan bo'lsa-da, bu kabi materiallarga bo'lgan ehtiyoj to'la-to'kis qondirilgan emas. Shu va shu kabi talablar inobatga olingan holda yaratilgan mazkur jaji qo'llanma ham ona tili ta'limi samaradorligiga ma'lum darajada hissa qo'sha oladi, deb o'ylaymiz.

Mazkur usuliy qo'llanma o'quvchi va talabalarning grammatik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. Unda "So'z qudrati", "So'z tanlash va qo'llash mahorati", "So'z ma'nosining taraqqiyoti", "So'zlarda hissiy-ta'siriy munosabat ifodasi", shuningdek, "So'z turkumlarining tasnifi", "Fe'l so'z turkumi", "Ot so'z turkumi", "Sifat so'z turkumi", "Son so'z turkumi", "Ravish so'z turkumi", "Taqlid so'z turkumi", "Olmosh so'z turkumi", "Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar", "Yordamchi so'z turkumi. Ko'makchi", "Bog'lovchi", "Yuklama", "Alohida so'z turkumlari" (So'z-gaplar) kabi mavzular o'rin olgan. Har bir mavzu uchun tegishli reja, tayanch tushunchalar, har bir mavzuga tegishli qisqa nazariy matn mavzusi, mavzuni mustahkamlovchi topshiriqli mashqlar, savollar, foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Shaxs tafakkurining o'sishi bevosita ona tili ta'limi bilan ham bog'liq. Mustaqil fikrlashga, izlanishga, o'ylashga zarurat tug'diruvchi topshiriqli amaliy mashqlar ona tili fani jarayoning tub o'zagini tashkil etmog' lozim.

Qo'llanmada mavzyga oid reja va tayanch tushunchalar, har bir mavzuga tegishli qisqa nazariy matn mavzusi, mavzuni mustahkamlovchi topshiriqli mashqlar, nazorat testlari, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berildi.

Ishonamizki, ushbu qo'llanma leksikologiya va morfologiya bo'yicha bilimlaringizni mustahkamlashda Siz o'quvchi-talabalarga qo'l keladi.

# LEKSIKOLOGIYA BO'YICHA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR

## 1-MAVZU. SO'Z QUDRATI

Reja:

1. So'zlash madaniyati.
2. So'z tanlash mahorati.
3. So'zdan so'zni farqi bor, 72 naqdi bor.

*Tayanch so'z va iboralar:* so'z, so'zlash madaniyati, so'z qudrati, so'zning tashqi va ichki tomoni, so'zning o'z va ko'chma ma'nosi.

**1-mashq.** So'z va nutq odobi bo'yicha aytilgan quyidagi fikrlarni sharhlang.

1. So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma. (A. Navoiy) 2. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D. E. Rozental) 3. Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi. (Kaykovus) 4. So'z kuchidan yiqilar minbar ham, dor ham, so'z birla chiqar indan ilon-murdor ham. (Abu Shukur Balxiy) 5. Har bir kishining madaniylik darajasi o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi, (S. Ibrohimov) 6. Bir deganni ikki demak xush emas, so'z chu takror topti dilkash emas. (A. Navoiy)

### **Esda saqlang:**

O'zbek tilida, avvalo, uning boy lug'at tarkibida o'zbek xalqining ilm-u madaniyati, san'ati aks etgan, insonning bilish faoliyati jarayoni va uning natijalari ifodalangan. Asosiy lug'aviy birlik hisoblangan so'z orqali kishilik jamiyatining madaniy-tarixiy qadriyatlarini, to'plangan tushuncha va bilimlar avloddan avlodga yetkaziladi.

So'z shakli va mazmun yaxlitligiga ega bo'lib, ma'no va gramatik jihatdan shakllangan bo'ladi.

So'zning shakli, ya'ni tashqi tomoni tovush (harf)lardan iborat bo'lib, bu xususiyatlari fonetikada o'rganiladi. So'zning ichki tomoni esa unda ifodalangan ma'nolar bilan tavsiflanadi. So'zlar bir ma'noli yoki ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi.

Ajdodlarimiz qadimdan to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma'rifiy-axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So'zni qadrlash, yaxshi so'zlay olish, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi bo'lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy

talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning mangu an'anasi sifatida yashagan va takomillashib kelmoqda.

**I topshiriq.** "Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi". (P. Emerson) Mazkur fikr haqida og'zaki matn tuzing.

**2-mashq.** Quyidagi maqollarni davomini toping.

1. Oz so'z- ...
2. Yaxshi gap jon ozig'i- ,...
3. Aytilgan so'z - ...
4. Qilichning zahri ketsa ham - ,...
5. Otalar so'zi - ...
6. Tilni bilish - ...
7. Aytar so'zni ayt- ,...
8. Ko'p bilgan oz so'zlar- ,...
9. Gapni oz so'zla- ,...
10. Yaxshi gap bilan- ...

**II topshiriq.** "Aql charxi" o'yinini tashkil eting. Unda quyidagi hazilnoma savollardan foydalaning:

1. Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi? (quruq tosh).
2. Qaysi joyda osmon past bo'ladi? (suvda).
3. Qora mushuk qay vaqt uyga osongina kira oladi? (eshik ochiq bo'lsa).
4. Qozonga birinchi nima solinadi? (nazar).
5. Dunyoda nima chaqqon? (fikir).
6. Nima hamma tilda ham gapiradi? (aks-sado).
7. Odamzodanima ko'p? (umid, reja).
8. Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin? (tush).
9. Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a qanday daraxtga qo'nadi? (ho'l daraxtga).
10. Mushuk nega miyovlaydi? (gapirib bilmagani uchun).

**III topshiriq.** Yuqoridagi kabi hazil so'roqlardan 5 ta tuzing.

**3 -mashq.** Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan so'z ta'rifi bo'limini o'qib quyidagi savollarga javob bering.

1. "Suvning mazasi muz bilan, oshning mazasi tuz bilan, odam yaxshiligi so'z bilan" jumlasini sharhlang.
2. ..."Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar..." jumlasini orqali qanday fikr ilgari surilgan?
3. "Yolg'on so'z baxtsizlik keltirur..." jumlasini izohlang.

**IV topshiriq.** Alisher Navoiyning quyidagi she'riy parchalarini sharhlab,

soʻz va soʻzlash odobi boʻyicha matn tuzing.

1. Har kimki chuchuk soʻz elga izhor aylar,  
Har neki agʻyor durur yor aylar,  
Soʻz qattigʻi el koʻngliga ozor aylar.  
Yumshogʻi koʻngullarni giriftor aylar.  
(“Nazm ul-javohir”dan)

2. Qaysi majlisdakim eshitsang soʻz,  
Bilgil ul soʻz sanga omonatdur,  
Gar ani oʻzga yerga naql etsang,  
Ul omonatga bu xiyonatdur.  
(“Arbain”dan)

3. Xiradmand chin soʻzdan oʻzga demas,  
Vale bari chin ham degulik emas.  
Kishi chinda soʻz zebo, durur  
Necha muxtasar boʻlsa, avlo durur.  
(“Mahbub ul-qulub”dan)

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Sheʼriyatda koʻchma maʼnoli soʻzning mavqeyi qanday?
2. Soʻz qudrati deganda nimani tushunasiz?
3. Soʻz va soʻzlash odobi boʻyicha donishmand bobolarimizning qaysi kitoblari bor?
4. Xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan soʻzlash odobi boʻyicha misollar ayting.
5. “Soʻzdan soʻzni farqi bor, 72 naqdi bor” degan ibratli soʻz zamirida qanday maʼno bor?
6. Adabiyot atomdan kuchli, ammo uning kuchini oʻtin yorishga sarflamaslik kerak. (A. Qahhor) Ushbu ibratli jumlagaga izoh bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Odilov Y. Ziyodullayeva G. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2017.
3. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб. 14-том, -Тошкент, 1998.
4. Кайковус. Кобуснома. -Тошкент, “Ўқитувчи”, 1986.
5. Югнакий А. Ҳибатул ҳақойиқ. -Тошкент, 1971.

### **Mavzu boʻyicha testlar:**

1. Qaysi gapda soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xato mavjud?  
A) Quyosh hamal yulduzlar burjiga oʻtishi bilan kunlar isiy boshlaydi.

- B) Shahrimiz nufuzi uch milliondan oshdi.  
 C) Tushga qolmay yukimiz ot-aravaga ortildi.  
 D) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.
2. Quyidagi gaplarning qaysi birida gul so'zi ko'chma ma'noda? 1. Turmush go'zal va shirin, kundan kun yashnar gulday. 2. Yashnamoqda gul turmush, biz tinchlikni istaymiz. 3. Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz. 4. Sen uy ichining cho'risi bo'lma, guli bo'l, guli.
- A) 1,4  
 B) 1,3,4  
 C) 2,4  
 D) 1,2,3,4
3. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarni toping. 1. Fe'l. 2. Ot. 3. Sifat. 4. Son. 5. Ravish. 6. Olmosh. 7. Ko'makchi. 8. Bog'lovchi. 9. Yuklama. 10. Taqlid so'z. 11. Modal so'z. 12. Undov so'z.
- A) 1,2,3,6,8,11  
 B) 1,2,4,6,10,11,12  
 C) 1,2,3,4,5,6  
 D) 1,2,3,4,5
4. Qaysi fikr noto'g'ri?  
 A) So'z shakl va mazmun butunligiga ega  
 B) Ko'p ma'noli so'zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi  
 C) Kundalik turmushda biz asosan bir ma'noli so'zlardan foydalanamiz.  
 D) So'z orqali kishilik jamiyatining madaniy-tarixiy qadriyatlarini, bilimlari avlodlardan avlodga o'tadi.
5. Yoqa so'zi quyidagi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llangan?  
 A) Kanalning ikki yoqasi bo'ylab qurilgan ko'p qavatli uylar juda ko'rkam edi.  
 B) Umar qamishzorni oralab, ko'l yoqasiga chiqdi.  
 C) Salim anchagacha yoqasining tugmasini o'tkaza olmadi.  
 D) Sodiq ham o'lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik.

## 2-MAVZU. SO'Z TANLASH VA QO'LLASH MAHORATI

Reja:

1. Ko'ngil qulf, uning kaliti so'zdir.
2. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.
3. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, tozaligi, ta'sirchanligi.

***Tayanch so'z va iboralar:*** o'z ma'no, ko'chma ma'no, nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning tozaligi, nutqning ta'sirchanligi.

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda



so'zni to'g'ri tanlash lozim.

So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

-so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

-tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni hisobga olish;

-so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash.

So'zni eshitganda, u haqdagi ongimizdagi birinchi tushunchaga atash ma'no (leksik yoki lug'aviy ma'no) deyiladi. Ana shu atash ma'no asosida paydo bo'lgan qo'shimcha ma'noga ko'chma (qo'shimcha) ma'no deyiladi. So'zning gapdan (matndan) tashqarida ifodalanadigan, nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan ma'nosi o'z mano deyiladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan ma'nosi ko'chma ma'no deyiladi. Masalan, inson oyog'i-o'z (asl) ma'no, stol oyog'i ko'chma (yasama) ma'no.

**4-mashq.** Gaplarni o'qing, ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni topib izohlang, ko'chim asosini tushuntiring.

1. Bu toifa odamlardan qochib qutulmasang, boshqa yo'l bilan qutulib bo'larmidi. Yelim-ku, yelim ular. (S. Ahmad) 2. Endi uning o'ktam gaplari, qisqa, muayyan buyruqlaridan mamnun edi. (O. Yoqubov) 3. G'ulomjon endi o'zini ancha tutib olib, o't bilan, harorat bilan gapirdi. (M. Ismoilij) 4. Kechirasiz, men shiringina bazmingizni qora xabar bilan muzlatib qo'ydim. (Oybek)

**I topshiriq.** Yurak, qo'l, ko'z, qora, oq, qizil, issiq, sovuq, bir, tushmoq, chiqmoq kabi so'zlarni izohli lug'atdan foydalangan holda ko'chma ma'nolarini toping.

Namuna: qora xat, qora kun, ko'ngli qora, qora tarix, qora baxt, qora nuqta, qora ko'z, qora sovuq, qora peshona va h.k.

**II topshiriq.** Ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanib "Chinor" mavzusida ramziy matn yozing.

**III topshiriq.** Izohli lug'atdan foydalanib, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar qatorini tuzing.

**Esda saqlang:**

Har bir kishi o'z nutqining to'g'ri, aniq, toza, ta'sirchan bo'lishiga erishishi lozim. Shunga ko'ra nutq oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bular quyidagicha:

**Nutqning to'g'rilligi.** Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilish talab qilinadi. Urg'uni to'g'ri qo'ymaslik undagi ma'noning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Grammatik me'yor esa gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, qo'shimchalarni qo'llashda xatolikka yo'l qo'ymaslik tushuniladi.

**Nutqning aniqligi.** Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni talab

etadi:

- sinonim so'zlardan keragini tanlab, nutqda qo'llash;
- ko'p ma'noli so'zlarning ma'no jilosini bilish, nutqda anglatadigan ma'nolarini har tomonlama bilish;
- omonim so'zlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;
- paronim so'zlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish (yondosh-yondash, asir-asr, asil-asl, nufuz-nufus).

**Nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi deganda, avvalo, uning adabiy til me'yolariga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Nutqning tozaligiga quyidagilar ta'sir etadi:

- mahalliy (sheva) so'zlar;
- o'rinsiz qo'llangan chet so'zlar (varvar so'zlar);
- jargonlar;
- vulgar so'zlar;
- nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar (haligi, shu desangiz, habba, ibi va b.)

**Nutqning ta'sirchanligi.** Ta'sirchan og'zaki nutq yaratish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tinglovchi e'tiborini, qiziqishini e'tiborga olib so'zlash;
- so'zlash jarayonida maqol, ibora, hikmatli so'z, ko'chimlardan foydalanish;
- oz, siqiq jumalalarda keng ma'noni ifodalash;
- vaziyatga qarab past yoki baland gapirish;
- so'zlashda, vaziyatga qarab mimika, pantomimikalardan foydalanish.

**5-mashq.** Uslubiy noo'rin qo'llangan so'zlarni topib, ular o'rniga mosini qo'yib ko'chiring. 1.Yo'lga yondash daryo sharqirab oqardi. 2. Bolam katta bo'lsa, diplomat bo'ladi. 3. Viloyatimiz nufuzi ikki milliondan oshdi. 4. Qurilishdagi ishning to'xtab qolishiga ganj yetishmovchiligi sabab bo'ldi. 5. Masalaga men ko'rsatgan usul bilan yondoshish yaxshi natija garovidir.

**6-mashq.** O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning paronim juftini toping. 1. Aravadagi bir necha bog' beda ustida o'lgan otning **abzallari** yotar edi. (A. Qahhor) 2. **Ablaq** yomon ot bo'ladi va uning yaxshi qiligi kam bo'ladi. ("Qobusnoma") 3. Alisher choponiga ola-bula yamoq solingan, **adinlari** so'kilgan, bosh yalang va oyoq yalang darveshni ham ko'rdi. (Oybek) 4. Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi **borligini** birinchi bilar edi. (A. Qodiriy) 5. **Otalik** hissining bebaho, laziz, to'lqinlari ichra g'arq bo'lib ketdim. (G'. G'ulom) 6. Navoiy uch-to'rt yoshidan boshlab jiddiy, go'zal she'rlar yoza olgan. (Oybek) 7. Qo'ying, boy aka, **urish** yaxshi emas, deb boyning qo'lini tutdi. (S. Ayniy)

**7-mashq.** Nuqtalar o'rniga sinonim so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring. 1. Uning hamisha naq olmadek qizarib turadigan yumaloq ...lari (bet, avt,

bashara, yuz, jamol, oraz, ruxsor) oqarib ketgan edi. (Sh. Rashidov) 2. Yormatning eshigi har vaqtdagi ... (kabi, singari, yanglig', o'xshash) yopiq. (Oybek) 3. ... (kuchli, baquvvat, zabardast) shamol ko'tarilib, bog'chadagi har narsani to'rt tarafga buka boshladi. (A. Qodiriy) 4. Nizomjon muhabbat bilan ... (vijdon, nomus) o'tida qovurilardi. (S. Ahmad) 5. Qora qumg'on bilan cho'pon bolani ... (zavq, maroq, shavq) bilan rasmga oldi Nodira. (Oybek)

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. So'z tanlashda nimalarga e'tibor beriladi?
2. Ko'p ma'noli so'zlarni topish uchun qaysi manbaga murojaat qilamiz?
3. Nutqning to'g'riligiga erishish nima bilan bog'liq?
4. Nutqning aniqligini ta'minlovchi vositalarni ayting.
5. Nutqning tozaligi deganda nimani tushunasiz?
6. Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun nimalarga e'tibor beriladi?

#### **Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Odilov Y. Ziyodullayeva G. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2017.
3. Xojiev A. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1974.
4. Маърупов З. Пароним сўзларнинг изоҳли луғати.- Тошкент, "Ўқитувчи", 1974.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тошкент, 2006-2008.

#### **Mavzu bo'yicha testlar:**

1. So'zning gapdan tashqarida ifodalanadigan, nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan ma'nosi nima deyiladi?
  - A) Ko'chma ma'no
  - B) O'z ma'no
  - C) O'zlashma ma'no
  - D) O'z va ko'chma ma'no
2. So'zning gap tarkibida boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan ma'nosi nima deyiladi?
  - A) Atash
  - B) O'z ma'no
  - C) Ko'chma ma'no
  - D) Lug'aviy ma'no
3. Ko'p ma'noli so'zlarni belgilash uchun qaysi lug'atga murojaat qilish mumkin?
  - A) Sinonimlar lug'ati
  - B) Har qanday lug'atga
  - C) Antonimlar lug'ati
  - D) Izohli lug'at

4. Yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati " necha jilddan iborat?
  - A) 2 jild
  - B) 4 jild
  - C) 5 jild
  - D) 10 jild
5. Noo'rin qo'llangan mahalliy so'zlar, varvar, vulgar so'zlar, parazit so'zlar nutqning qaysi xususiyatiga ta'sir qiladi?
  - A) Nutqning to'g'riligiga
  - B) Nutqning tozaligiga
  - C) Nutqning aniqligiga
  - D) Nutqning ta'sirchanligiga

### 3-MAVZU. SO'Z MA'NOSINING TARAQQIYOTI

Reja:

1. Metafora hodisasi.
2. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chish.
3. Sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chish.
4. Vazifadoshlik.

*Tayanch so'z va iboralar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.*

1. Ikki narsa-hodisa, belgi yoki ish-harakat bir-biriga o'xshasa, birining nomi ikkinchisiga ko'chishi mumkin. O'xshashlik asosida ma'no ko'chish **metafora** deyiladi. Masalan, quloq so'zining asl ma'nosi "tirik mavjudotning eshitish organi": qozonning qulog'i, radioning qulog'i kabi qo'llanishlarda metafora yo'lida (o'xshashlik asosida) ma'no ko'chish uchraydi.

Insonga nisbatan ishlatiladigan bo'talog'im, qo'zichogim, toychog'im kabi qo'llanmalar ham metafora yo'lida ma'no ko'chishga misol bo'ladi.

2. **Metonimiya** aloqadorlik asosida ma'no ko'chish usuli hisoblanadi. Bunda ikki predmet o'rtasida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi. Birini nomini aytish bilan ikkinchisi tushuniladi. Misollarni kuzatamiz:

1. Majlisga butun qishloq keldi. ("qishloq ahli ma'nosida")
2. Navoiyni o'qidim. ("Navoiy asarlari ma'nosida")
3. Bir kosa yedim. ("bir kosa ovqat ma'nosida")
4. Auditoriya sukutda. ("auditoriyada o'tirgan kishilar ma'nosida")

Metonimiyada nutqni tejash ustuvorlik qiladi. Maslan, "Fuzuliy asarlarini oldim qolimga" deyish o'rniga "Fuzuliyning oldim qolimga" deb aytish ancha qulay.

3. **Sinekdoxa** butun va qism munosabati asosida ma'no ko'chish yo'lidir. Bunda butunning nomi qismga, qismning nomi butunga ko'chadi:

1. Hech bir inson **tirnoqqa** zor bo'lmasin. ("farzand ma'nosida").

2. Fermamiz yuz **boshga** yetdi. (“qoramol ma’nosida”).
3. Besh qo’l barobar emas (“barmoq ma’nosida”).
4. **Vazifadoshlik** muayyan narsaning ma’nosini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingisini ham ifodalashdir. Masalan, kamoning o’qi, miltiqning o’qi, zambarak o’qi. Bunda bir vazifani turli vositalar bajarib kelmoqda. O’tmishda pardan yasalgan yozuv quroliga nisbatan qalam, bugungi kundagi “o’rtasiga grafit o’rnatilgan yozuv quroliga” nisbatan ham qalam atamasi qo’llanadi. Vazifadoshlik yo’lida ma’no ko’chish nisbatan kam uchraydi.

**8-mashq.** O’qing. Metafora yo’li bilan ma’nosi ko’chgan so’zlarni aniqlang. Gaplarni ko’chirib, ma’nosi ko’chgan so’zlarning tagiga chizing.

1. Sodiq ham o’lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik. (A. Qodiriy)
2. Ikki ko’zi har nav mollar bilan to’la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi. (Oybek)
3. Tog’larning etagidan uchib maysaga yetar. (Mirmuxsin)
4. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri varrak dumlariga ilashib qoldi. (Shukrullo)
5. Xayriyat, eshikning kaliti burnida qolgan ekan. (S. Ahmad).

**I topshiriq.** Badiiy asarlardan metafora yo’lida ma’no ko’chish kuzatiladigan o’n ta gap yozing.

**II topshiriq.** Sifat, fe’l turkumiga oid metaforalarga misollar toping.

**III topshiriq.** Xom, pishgan, kesmoq, so’ramoq so’zlarini ko’chma ma’noda qo’llab gaplar tuzing.

**9-mashq.** Metonomiya yo’li bilan ma’nosi ko’chgan so’zlarni topib, izohlang.

1. Butun vujudi bilan berildi u o’qishga. Har kun olib papkasini, Qatnar u “Navoiy”ga. (Mirmuhsin)
2. Butun qishloq bizni so’zlaydi, To’yimizni doim ko’zlaydi. (H. G’ulom)
3. Sizning kelishingizni eshitib, butun Marg’ilon ko’chib chiqdi. (H. Nu’mon)
4. Sakkizda eding, o’n oltiga qadam qo’yding. (H. G’ulom)
5. Zal gurullab kulib yubordi. (A. Qahhor)

**IV topshiriq.** Metonimiya yo’lida ma’no ko’chgan she’riy misralar ayting va izohlang.

**V topshiriq.** Quyidagi she’riy parchada kuzatiladigan ma’no ko’chishni aniqlang.

Lermontovni tashlamadim hech,  
So’ngra qo’lga oldim Hofizni.  
Pushkin menga ko’rsatdi har kech,  
Yig’lab turgan bir cherkas qizni.

**10-mashq.** Gaplarni o'qib, ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan gaplarni ko'chiring.

1. Egizakni ko'p tug'ar qo'ylar, Ko'payadi suruvga tuyoq. (Mirmuxsin) 2. Eshitgan quloq nima deydi. (H. G'.) 3. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz. 4. O'ttizga kirsam ham cho'chib turaman, Ko'zim tushsa oq xalatlarga. (E. Vohidov) 5. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (I. R.) 6. Qulingizdan qolgan yolg'iz tirnoq bu. (Y. Sulaymon) 7. Qishloq uyg'onmoqda. 8. Quvnoq tongning oltin bo'sag'asida, Tongni kutar quvnoq ming-ming ko'z. (Mirmuxsin)

**VI topshiriq.** O'qib turgan badiiy asarlaringizdan metafora, metonimiya, sinekdoxaga misollar topib ko'chiring, izohlab bering.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Metafora haqida gapiring.
2. Metonimiya yo'lida mano ko'chishning o'ziga xos xususiyati qanday?
3. Sinekdoxa haqida gapiring.
4. Vazifadoshlik qanday ma'no ko'chish?
5. Yod olgan she'rlaringizning qaysilarida ma'no ko'chish uchraydi? misollar ayting, izohlab bering.

**Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Odilov Y. Ziyodullayeva G. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2017.
3. Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'bek tili. -Toshkent, "Universitet", 2006.

**Mavzu bo'yicha testlar.**

1. Aloqadorlik asosida ma'no ko'chish nima deyiladi?  
A) Metafora  
B) Metonimiya  
C) Sinekdoxa  
D) Vazifadoshlik
2. Metafora qaysi so'z turkumlari doirasida uchraydi?  
A) Ham mustaqil ham yordamchi so'zlarda  
B) Faqat ot so'z turkumida  
C) Ot, sifat, fe'lda  
D) Deyarli barcha mustaqil so'z turkumlarida
3. E. Vohidovdan yodlab kelinglar, dedi o'qituvchi. Gapda ma'no ko'chishning qaysi usuli bor?  
A) Metafora  
B) Metonimiya  
C) Sinekdoxa  
D) Vazifadoshlik
4. Stulning singan oyog'ini tuzatamiz. Gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

- A) Metafora  
 B) Metonimiya  
 5. Sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan qatorni toping  
 A) O'qituvchi xafa bo'lib, auditoriyaga o'shqirdi  
 B) Gapga yana gap ular, o'zaro suxbat gullar  
 C) Belni aldab-aldab ishga solmasak bo'lmas  
 D) Urush ko'p odamlarning yostig'ini quritdi

- C) Sinekdoxa  
 D) Vazifadoshlik

#### 4-MAVZU. MA'NODOSH, SHAKLDOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR TAVSIFI

Reja:

1. So'zlarning ma'no va shakl munosabatiga ko'ra turlari.
2. Ma'nodosh so'zlar.
3. Shakldosh so'zlar.
4. Zid ma'noli so'zlar.

*Tayanch so'z va iboralar: ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik.*

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ba'zilari esa talaffuz jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**I. Ma'nodosh so'zlar.** Bir umumiy ma'noni ifodalaydigan kamida ikkita so'zdir. Ma'nodosh so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan, sovg'a, hadya, tuhfa, armug'on.

Umumlashtiruvchi ma'no zamirida yuzaga kelgan ma'no noziklari ularning farqini va qo'llanishida o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

Ma'nodosh so'zlar odatda bir so'z turkumiga mansub bo'ladi: do'st, o'rtoq, (ot); a'lo, tuzuk, yaxshi (sifat); yuksalmoq, o'smoq, rivojlanmoq (fe'l).

Ayrim ma'nodosh so'zlarda ma'no daraja turlicha bo'ladi. Masalan, pushti, gulobi, qizil, qirmizi ma'nodoshlik qatorida rang belgisining kamlikdan ko'plikka qarab o'sib borishi kuzatiladi. Ninni, chaqaloq, go'dak, bola kabi so'zlar qatorida ham yosh jihatdan o'sish (darajalanish) kuzatiladi.

**11-mashq.** Quyidagi so'zlardan ma'nodoshlik qatorlari tuzib yozing. Ko'p, ayb, bahs, sovg'a, mo'l, tanqis, osmon, uy, odim, ko'k, kulba, bahor, yashirin, ancha, hadya, o'g'rincha, talay, pinhona, munozara, tortiq, kamchil, jinoyat, tortishuv, armug'on, taqchil, xufiya, tuhfa, maxfiy, falak, qasr, qadam, ko'klam.

**12-mashq.** Ma'nodosh so'zlarni topib, ma'no nozikliklarini

farqlanishini tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo'ynimga osilar subh shamoli. (Mirmuhsin) 2. Erur bas chu husn-u malohat senga, Yasanmoq, bezanmoq ne hojat senga. (Navoiy) 3. Falakdan, osmondan, ko'kdan oshgay faxr etib boshim. (Habibiy) 4. Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam edi, ayyor, mug'ambir, puxta-pishiq... Har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rar edi. (Oybek) 5. Ba'zan uni o'qiyman oshkor, Ba'zan xufiya – g'oyatda pinhon. (Mirmuhsin).

**I topshiriq.** Affiksali ma'nodoshlikni aniqlang. Qatorni davom ettiring.

Somsachi-somsapaz, sutli-sersut, mardona-mardlarcha, chorvachi-chorvador, serharakat-harakatchan, adabiyotchi-adabiyotshunos...

**II topshiriq.** Yuqoridagi so'zlarda ma'noviy farqlanish seziladimi, agar bo'lsa farqlab bering, 4 ta gap tuzing.

**II. Shakldosh so'zlar** aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: 1) so'z-puxta, ma'qul; 2. soz – cholg'u asbobi; 3. soz – inoq, o'zaro yaqin.

Shakldosh so'zlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlash lozim. Ular aytilishi va yozilishi bir xilligi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, shakldosh so'zlar ma'nosida ichki bog'lanish bo'lmaydi, ularning har biri alohida ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Yuqorida keltirilgan **soz** so'zining har biri alohida so'z hisoblanadi. Ko'p ma'noli so'z esa, o'z nomidan anglashilayotganidek, bir necha ma'nosi bo'lgan bir so'zdir. Ko'p ma'noli so'zlar anglatgan ma'nolarda ichki bog'lanish bo'ladi.

Shakldosh so'zlardan uslubiy maqsadlarda keng foydalaniladi, ular badiiy adabiyot va so'z san'atida muhim ta'sirchan vosita sanaladi. Shakldosh so'zlarni qo'llash bilan turli so'z o'yinlari, askiya, payrov, hazillar kelib chiqadi, she'riyatda tuyuq janri tuziladi. Masalan:

Har qancha bilsang ham, o'qi erta-**kech**,

Bilim tog'iga chiq, dengizidan **kech**.

Quruq savlatingga mahliyo bo'lma,

Mehnat mashaqqatsiz halovatdan **kech**. (Habibiy)

Matn mazmunini ochuvchi shakldosh so'zlarning ma'nosini to'g'ri farqlay bilish muhimdir. Ma'noni to'g'ri anglay olmaslik nutqda noaniqlikka, ba'zan qo'pol xatoga yo'l qo'yish hollariga olib keladi. Bu hol, ayniqsa, shakldoshlarning boshqa ko'rinishi – paronimlar (tovush jihatdan farqli, ammo aytilishi o'xshash so'zlar)da ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Masalan: ahil-ahl, asir-asr, diplomat-diplomant, yonilg'i-yoqilgi, asil-asr, adib-adip.

**13-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan shakldosh so'zlarning ma'nolarini izohlang.

1. Dunyoda bor ekan har narsaga **chek**, Bema'ni umringga bir oz qayg'u **chek**. (G'.G'.) 2. La'lidin jonimga o'tlar **yoqilur**, qoshi qaddimni jafodin **yo**



qilur. (Navoiy).

3. Sham yanglig' yonadur boshimda o't,  
Ko'z yoshimdin yer yuzida undi o't.  
Qon yoshim qildi yo'lingni lolazor,  
Munga taqsir ayladim, qpnimdan o't. (Navoiy)

4. Taqdiringni qo'ling bilan yoz  
Mening bilan qishni qilgin yoz.  
Erkinlikning osmonida uch,  
Maqsad sari qanotingni yoz. (N. Nuriy)

**III topshiriq.** "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (Sh. Rahmatullayev, 1984) kitobi bilan tanishing. Kam qo'llanuvchi shakldosh so'zlar lug'atini tuzing.

**IV topshiriq.** El, kuy, savdo, chang, palla, sandal, pasta, tom kabi so'zlarning shakldoshlik juftliklarini toping, 6 ta gap tuzing.

**III. Zid ma'noli so'zlar** bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi so'zlardir. Masalan: past-baland, oq-qora, keng-tor.

Odatda ikki ta so'zning zid leksik ma'no munosabati zid ma'noli (antonim) so'zlarni hosil qiladi, birini aytish bilan uning zid ma'nosi ham nazarda tutiladi. Tilda belgi-xususiyat anglatuvchi so'zlarda zidlik, qarama-qarshilik munosabati kengroq tarqalgan: uzoq-yaqin, oq-qora, och-to'q, do'st-dushman kabi. Sifat va ravishda antonimlik ko'p uchraydi.

Zid ma'noli so'zlarning nutqda juft holda ishlatilishi ko'proq uchraydi, bunda so'z ma'nosi kengaygan bo'ladi, umumlashtiruvchi ma'no ifodalaydi: yaxshi-yomon, uzoq-yaqin, oq-qora, katta-kichik va boshqalar.

Zid ma'noli so'zlar she'riyatda tazod san'atini yuzaga keltiradi: Sevgan ko'ngil shoh bo'lurmi va yoki gado, bila olmadim. (E. Vohidov).

**14-mashq.** Quyida berilgan iboralarga zid ibora topib yozing.

1. Og'zi qulog'ida –
2. Qo'y og'zidan cho'p olmagan –
3. Tili achchiq –
4. Yog' tushsa, yalagudek –
5. Ko'ngli oq –
6. Ishqi tushdi –
7. Yuragi qisdi –
8. Mum tishlamoq –
9. Dunyodan o'tmoq –
10. Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaslik –

**V topshiriq.** Zid ma'noli so'zlar qatnashgan xalq maqollaridan 10 ta

yozing, ma'nosini izohlang.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar nutqimizda qandaypqqydo bo'ladi?
2. To'liq sinonimlar va ma'noviy darajalanuvchi so'zlar haqida ma'lumot bering, misollar bilan tushuntiring.
3. Shakldosh so'zlar (omonim) haqida gapiring.
4. Paronim so'zlarga 10 ta misol ayting.
5. Zid ma'noli so'zlar (antonim) haqida gapiring.
6. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy adabiyotda qanday san'atlarni yuzaga keltiradi?
7. Sinonim, omonim, antonim, paronim so'zlar lug'ati bilan tanishmisiz? bu lug'atlarning ahamiyati qanday?

### **Adabiyotlar:**

1. Xojiev A. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. -- Тошкент, "Ўқитувчи", 1974.
2. Маърупов З. Пароним сўзларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, "Ўқитувчи" 1974.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1984.
4. Раҳматуллаев Ш. Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. -Тошкент, "Ўқитувчи", 1980.

### **Mavzu bo'yicha testlar:**

1. Iboli, hayoli, nomusli, oriyatli, andishali sinonimik qatoridan bosh so'zni toping.
  - A) Iboli
  - B) Oriyatli
  - C) Nomusli
  - D) Hayoli
2. Kambag'al so'zining ma'nodoshlarini toping.
  - A) Muhtoj, kamchil, qashshoq
  - B) Tanqis, bechora, miskin
  - C) Miskin, yo'qsil, kalta
  - D) Qashshoq, bechora, faqir
3. Orzu so'zining manodoshini toping.
  - A) Istak, xopish, havas
  - B) Havas, mayl, kelajak
  - C) Tilak, istak, sog'inmoq
  - D) Hafsala, mayl, ishkal
4. Adabiyotda antiteza (qarshilantirish) usuli, tazod san'atini hosil qiluvchi vositani belgilang.
  - A) Omonim (shakldosh) so'z

- B) Antonim soʻz
  - C) Paronim soʻz
  - D) Sinonim (maʼnodosh) soʻz
5. Shakldosh soʻzlar berilgan qatorni toping.
- A) Tut, kuy, qozi, rasta
  - B) Soch, oʻt, bor, qoʻl
  - C) Qoʻy, sandal, palla, sur
  - D) Mol, soz, qosh, joʻr
6. Qaysi gapda paronim bilan bogʻliq xato mavjud emas?
- A) Imtihonda Mansurjonga bir bal yetmadi
  - B) Majlis ahlining aksariyati xursand boʻldi
  - C) Mashinaga yoqilgʻi quying
  - D) A, B, C.

## 5-MAVZU. SOʻZLARDA HISSIY-TAʼSIRIY MUNOSABAT IFODASI

Reja:

1. Soʻzlarning hissiy-taʼsiriyl jihatdan turlari.
2. Uslubiy betaraf soʻzlar.
3. Boʻyoqdor soʻzlar.
4. Ijobiy va salbiyl boʻyoqdor soʻzlar.

*Tayanch soʻz va iboralar: hissiy-taʼsiriyl soʻz, betaraf soʻz, boʻyoqdor soʻz, ijobiy boʻyoqdor soʻz, salbiyl boʻyoqdor soʻz.*

**15-mashq.** Gaplarni oʻqing, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning maʼno ifodasini tushuntiring.

1. **Onajon**, qolganlar baxtiga faqat, Olov bulgʻamasa boʻldi olamni. (A. Oripov)
2. Va shabboda **qurgʻur** ilk sahar, Olib ketdi gulning totini. (H. Olimjon)
3. **Sut koʻr qilgʻur**, haromi Gitler, oqpadar, Farzand qdrini qayerdan bilsin. (Gʻ. Gʻulom)
4. Kechir, **arslonim**, hozir uyingga bormoqchi edim. (Oybek)
5. **Tentakkingiz** savlatlikkina yigit boʻlib qaytdi-ya, sallotlikdan. (Gʻ. Gʻulom).

Soʻzlovchingni turli hissiy-taʼsiriyl munosabatlarini ifodalash xususiyatlariga koʻra soʻzlar ikki turga ajratiladi. Bular **betaraf soʻzlar va boʻyoqdor soʻzlardir**.

Muayyan tushunchani ifodalab, soʻzlovchining turli munosabatini bildiruvchi, qoʻshimcha maʼno jilosi boʻlmagan soʻzlar hissiy-taʼsiriyl jihatdan **betaraf soʻzlar** hisoblanadi. Masalan, yil, kun joy, qoʻshiq, kitob, tuman, yozmoq, kelmoq kabi.

Leksik maʼno bilan birga, maʼnosi anglashilayotgan narsa, belgi yoki harakat-holatga soʻzlovchining turlicha munosabatlarini ham ifodalovchi

soʻzlar hissiy-taʼsiriyl jihatdan boʻyoqdor soʻzlar sanaladi: Masalan, chehra, jamol, bashara, tabassum, noshud, naynov, koʻrkam, doʻmboq, gazanda kabi.

Boʻyoqdor soʻzlar hurmat, erkalash, xushmuomalalik, koʻtarinki ruhiyat kabi qoʻshimcha maʼnolarni ifodalasa **ijobiy boʻyoqdor** soʻz sanaladi: Masalan, ukajon, kenjatoy, fusunkor, orombaxsh, jilmaymoq kabi.

Hissiy-taʼsiriyl munosabat nafratlanish, mensimaslik, kinoya, qargʻash, hurmatsizlik maʼnolarga ega boʻlgan surbet, bashara, tirjaymoq, axmoq, mijgʻov, nonkoʻr, kabi soʻzlar orqali ifodalansa, bunday soʻzlar salbiyl boʻyoqdor soʻzlar sanaladi.

**16-mashq.** Quyida berilgan soʻzlarni “betaraf soʻzlar”, “ijobiy boʻyoqdor soʻzlar”, “salbiyl boʻyoqdor soʻzlar” tarzida guruhlab chiqing.

Kitob, insofli, daraxt, mehribon, qallob, oshpaz, ziyrak, dangasa, zoʻravon, bagʻri keng, ziqna, bashara, oraz, daftar, iljaymoq, jilmaymoq, vaysamoq, oʻsimlik, tabiat, xushmuomala, ayyor, dono, boshlamoq, tanti, qalam, tasqara, lochin, kabutar.

**I topshiriyl.** Yuqoridagi qatorni mustaqil davom ettiring.

**II topshiriyl.** Odamzodga xos boʻlgan ijobiy va salbiyl xususiyatlarni yozib chiqing.

**III topshiriyl.** Oʻqigan asarlaringiz qahramonlaridan birini tanlab, tanqidiyl matn yarating, ijobiy va salbiyl xususiyatlarini koʻrsating.

Atamalar ikkiga boʻlib oʻrganiladi:

A) ilmiyl atamalar

B) kasbiyl atamalar

Ilm-fan, texnikaga oid soʻzlar ilmiyl atamalar deyiladi. Bular shu soha doirasida, odatda bir maʼnoda qoʻllanadi. Atamalar termin yoki istiloh deb ham yuritiladi. Tilshunoslikka oid atamalar: fonema, grafika, yuklama, ajratilgan boʻlak, undalma va h. k. Adabiyoshunoslikka oid atamalar: aruz, bahr, turoq, qofiya, radif, tuyuq.

Kasb-hunarga oid soʻzlar kasbiyl atamalar deyiladi. Jamiyatda ilm-fan bilan birgalikda kasb-hunar ham mavjud. Yuzlab kasb-hunar tarmoqlari mavjud. Har birining oʻziga xos, oʻz hunarlariga doir atamalari bor. Etikdoʻzlik kasbiga oid atamalar: angob, loya, qolip, sogʻi, betlik, poshna, charm. Tikuvchilikda: nina, ip, angishvona, tikuv mashinasi, andoza va h. k.

**17-mashq.** Oʻqing, kasb-hunarga oid soʻzlarni aniqlab, maʼnosini izohlashga harakat qiling.

1. Buni sotib, charm ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolarni oldi. (Oybek) 2. Ko'zqusini xushlamay, yerga otib tashlabdi, Angishvona, ignasin zanglar bosa boshlabdi. (M. Qo'shmoqov) 3. Ostonada munqayib o'tirgan chol yonboshiga qo'yib olgan paqirdan qiyshiq-qiyg'ir mixlarni olib, bolg'a bilan to'g'rilardi. (S. Ahmad) 4. Yo'lchi uch haftadan beri aravada gazlama tashiydi. (Oybek) 5. Boshqa bir hovlida ikki bola erinchoqlik bilan arra tortardi. ("Yoshlik").

**18-mashq.** Ilm-fanga oid atamalarni topib izohlang. Qaysi fan atamasi ekanligini ayting.

1. Uyushiq bo'laklar orasida vergul yoki va ham, hamda singari bog'lovchilardan biri qo'yiladi. 2. Kichkinagina bir hikoya shunchalik azob bilan yozilsa, eng kamida qirq-ellik hikoyaga teng keladigan roman qanday yozilar ekan? (U. Normatov) 3. Kollektiv – katta kuch degan aksioma bu yerda ham o'zini ko'rsatdi. (P. Qodirov) 4. Tog' qishloqlarining tesha tegmagan, ishonsa ham, ishonmasa ham bo'ladigan g'alati ertaklari, afsonalari bo'ladi. (H. G'ulom).

**IV topshiriq.** Badiiy asarlardan ilm-fan va kasb hunarga oid so'zlar qatnashgan gaplar yozing.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Hissiy-ta'siriy so'zlar deganda nima tushunasiz?
2. Uslubiy betaraf so'zlar deb nimaga aytiladi?
3. Ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlarning o'zaro farqi nimada?
4. Ilmiy atamalar qanday hosil bo'ladi?
5. Kasbiy atamalarning ilmiy atamalardan farqi nimada?

#### **Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Odilov Y. Ziyodullayeva G. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. -Toshkent, 2017.
3. Турсунов У ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, "Ўқитувчи", 1992.
4. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Бухоро 2002.

#### **Mavzu bo'yicha testlar:**

1. Harakat ma'no darajasi oshib borgan qatorni ko'rsating.
- A) Jim turmoq, kulmoq, yig'lamoq
  - B) Qizil, qizg'ish, qip-qizil, qirmizi
  - C) Yurmoq, chopmoq, yugurmoq, yelmoq
  - D) Baqirmoq, so'zlamoq, pichirlamoq, shivirlamoq

2. Bo'yoqdor so'zlar, odatda qaysi uslubda qo'llanadi?

- A) Ilmiy uslubda
- B) Badiiy uslubda
- C) Rasmiy uslubda
- D) So'zlashuv uslubida

3. Ijobiy bo'yoqdor so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) Dilkash, immilamoq, xushro'y
- B) Tasqara, xudbin, naynov
- C) Umid, manzara, xayolan
- D) Fusunkor, orombaxsh, kenjatoy

4. Betaraf so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) Qalam, gul, hovli
- B) Mijg'ov, daftar, dono
- C) Qizil, doim, gazanda
- D) Bo'r, ovqat, ko'rkam.

## MORFOLOGIYA BO'YICHA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR

### 1-MAVZU: SO'Z TURKUMLARI TASNIFI

Reja:

1. So'zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari
2. Leksik va grammatik ma'no
3. So'zning lug'aviy, morfologik, sintaktik xususiyati
4. O'zbek tilining agglutinatativ tabiati
5. Ta'lim tizimi bo'g'inlarida so'zlarni turkumlarga ajratilishi

*Tayanch so'z va iboralar: leksemalarning serqirraligi, so'z turkumlari, so'zlarni tasniflash asoslari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi ma'noli so'zlar, bo'sh-ishora ma'noli so'zlar, o'zgaruvchi, o'zgarmas so'z turkumi, yordamchi so'z, oraliq so'z turkumi.*

Leksemaning har bir qirradi alohida tasnif uchun asos bo'la oladi. So'z turkumlari belgilanishida ularning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini inobatga olinadi.

So'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

1. Mustaqil ma'noli so'zlar:

- a) mavjudotlar (narsa va hodisalar)ni atovchi so'zlar – otlar;
- b) belgi-xususiyatni atovchi so'zlar – sifatlar;
- v) harakat holat ifodalovchi so'zlar – fe'llar;
- g) miqdorni ifodalovchi so'zlar – sonlar;
- d) o'rin-payt, belgi, tarz-tusni ifodalovchi so'zlar – ravishlar;
- e) taqlidni ifodalovchi so'zlar – taqlidiy so'zlar.

2. Bo'sh-ishora ma'noli so'zlar – olmoshlar.

3. Yordamchi ma'noli so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar. So'zlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda ma'no ifodalay olish qobiliyatiga ko'ra belgilanadi.

Leksemalar morfologik tasnifga ko'ra ikki tipga ajratiladi:

1. O'zgaruvchi leksemalar.

## 2.O'zgarvas leksemalar.

O'zgaruvchi so'zlar morfologik kategoriyalar (son, egalik, kelishik, nisbat, qiyoslash, subyektiv munosabatlar, kesimlik, o'zgalovchi)ning qo'shimchalarini qabul qila oladi. O'zgarvas so'zlar bunday qo'shimchalarni qabul qila olmaydi. So'zlarning morfologik imkoniyatiga ko'ra tasnifi quyidagicha beriladi:

a) **o'zgaruvchi so'zlar:** turlanuvchi (ot), darajalanuvchi (sifat), tartiblanuvchi (son), nisbatlanuvchi (fe'l)

b) **o'zgarvas so'zlar:** ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov, so'z-gap.

Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish yoki bog'lana olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olishi yoki kela olmasligi kabi xususiyatlar o'z aksini topadi.

Sintaktik tasnifga ko'ra leksemalarni uch tipga ajratamiz:

1. Gap bo'lib keladiganlar – undov, modal, tasdiq va inkor, taklif so'z-gaplar.

2.Gap bo'lagi bolib keladiganlar – hamma mustaqil so'zlar – fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlidlar, ishora so'z – olmoshlar.

3.Sintaktik aloqa vositasi bo'lib keladiganlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gaplar nutqda boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kela olish qobiliyatiga ega, ya'ni ajralish xususiyatiga ega. Mustaqil va yordamchi so'zlar esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, ammo sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi.

**I topshiriq.** Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalaringizni sinab ko'ring.

1. So'zning serrqiraligi deganda nima tushunasiz?

2. Atash ma'no, grammatik ma'no mohiyatini tushuntiring.

3. Ma'lumki, leksikologiya va morfologiyaning o'rganish asosi - so'z. Ular so'zni qaysi jihatdan o'rganadi?

4. So'zlarni turkumlashga ajratishda qanday tamoyillarga tayaniladi?

5. Grammatik va leksik ma'no munosabati haqida gapiring.

6. So'z turkumlari transpozitsiyasi (ko'chishi) haqida nimalarni bilasiz?

7. So'zlarning semantik, morfologik, sintaktik tasnifi haqida so'zlang.

**1-mashq.** O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni semantik, morfologik, sintaktik tahlil qiling.

1. **Aravadagi** bir necha bog' beda ustida o'lgan otning abzallari yotar edi. (A. Qahhor) 2. **Ablaq** yomon ot bo'ladi va uning yaxshi qiligi kam bo'ladi. ("Qobusnoma") 3. Alisher choponiga **ola-bula** yamoq solingan, adiplari so'kilgan, boshyalang va oyoqyalang darveshni ham ko'rdi. (Oybek) 4. Otabek Zaynabning **shu qadar** yurak dardi borligini birinchi bilar edi. (A. Qodiriy) 5. Otalik hissining bebaho, laziz, to'lqinlari ichra **g'arq bo'lib ketdim**.



(G'. G'ulom) 6. Navoiy uch-to'rt yoshidan boshlab **jiddiy**, go'zal she'rlar yoza olgan. (Oybek) 7. **Qo'ying**, boy aka, urish yaxshi emas, deb boyning qo'lini tutdi. (S. Ayniy)

**II topshiriq.** Yuqoridagi mashqda ajratib ko'rsatilgan misollardagi so'zlarni so'z turkumlari bo'yicha tasniflashda uch belgi birligi (semantik, morfologik, sintaktik)dan qaysi biri yetakchilik qilishini tushuntiring.

**III topshiriq.** Abdurauf Fitratning "Tilimiz" maqolasini topib o'qing, Undagi turkiy tillar va ularning agglutinatativ tabiati haqidagi fikrlar bilan tanishing. O'zingiz o'rganayotgan chet tillari bilan o'zbek tilini qiyoslashga harakat qiling.

**2-mashq.** Abdulla Avloniyning til va nutq haqidagi quyidagi parchani o'qing hamda quyidagi topshiriqlarni bajaring.

*Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamagani aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishdirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayotimiz va saodatimiz uchun osh va non kabi kerakli narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Zig'ir yog'i solib, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur.*

*...Umumiy milliy tilni saqlamak bila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. "Quruq so'z quloqqa yoqmas", - demishlar.*

*Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadiringan bo'lmasa, asalari orasida g'ung'ullab yurgan qovoqari kabi quruq g'ung'ullamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa narsa emas. Boshimizg'a keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun donolar: "Ko'p o'yla, oz so'yla", - demish.*

*Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o'ylab so'zlangan so'zdur.*

**IV topshiriq.** Yuqoridagi matndan tarixiy so'z va qo'shimchalarni alohida ajratib yozing, izohlang.

**V topshiriq.** Atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlarni toping, turini aniqlang.

**VI topshiriq.** Fe'l turkumiga oid so'zlarni belgilab, tasniflashga harakat qiling.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tilshunoslikning grammatika bo'limida nimalar haqida fikr yuritiladi?
2. Mustaqil ma'noli so'zlar, ularning umumiy tomonlari haqida gapiring.
3. Yordamchi so'zlar haqida nimalar bilasiz?
4. Oraliq so'z turkumlari deganda nima tushunasiz?

### **ADABIYOTLAR :**

1. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. –Тошкент, 1994 йил.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик.–Тошкент. Маърифат, 2013.
4. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
5. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

### **2-MAVZU: FE'L SO'Z TURKUMI**

Reja:

1. So'z turkumlari tizimida fe'l
2. Fe'l so'zlarning tarixiy shakllanishi
3. Fe'lning leksik- grammatik tabiati
4. Fe'l yasalishi
5. Fe'lning boshqa so'z turkumlari bilan munosabati

*Tayanch so'z va iboralar: fe'l, fe'lning leksik-grammatik xususiyati, fe'lni tasniflovchi kategoriyalar, fe'lning kategorial, nokategorial shakllari, fe'l yasalishi, fe'l konversiyasi.*

Fe'llar ish-harakatni yoki holatni atab keladi. Fe'l nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi: *yozmoq, o'qimoq, bormoq, o'tirmoq* kabi. Fe'l anglatgan ish-harakat, holat biror kimsa yoki narsa tomonidan bajariladi. Bu kimsa yoki narsa harakatning bajaruvchisi deyiladi.

Fe'llar ma'no ifodasiga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

I. Harakat fe'llari inson, hayvon, jonsiz predmetlarga xos faoliyatni ifodalaydi. Bular da jismoniy harakat yuz beradi: *yugurmoq, chizmoq, tortmoq, ketmoq, ko'tarmoq, ishlamoq, mushtlashmoq* va h.k.

II. Nutq fe'llari gapirish harakati bilan bog'liqdir: *gapirmoq, so'zlammoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, shivirlamoq, nutq irod etmoq, pichirlamoq* va h.k.

III. Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos bo'lgan ruhiy holatlar va narsa-hodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini anglatadi: *isidi, qizardi, sovidi, ruhlendi, xafa bo'ldi, qo'rqdi, uyaldi* va h.k. Holat fe'llarini quyidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:

- a) ichki holat fe'llari;
- b) tashqi holat fe'llari;
- d) jismoniy holat fe'llari;
- e) ijtimoiy holat fe'llari.

IV. Tafakkur fe'llari o'ylash, fikrlash bilan bog'liq holatni bildiradi: *o'ylamoq, xayol surmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq* kabi.

Fe'l yasalishi. Fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Yasash asosiga qo'shib yasama fe'llar hosil qiluvchi affikslarning so'z yasash darajasi turlicha.

*-la, -lan, -lash, -lashtir* kabi affikslar mahsuldor bo'lib, fe'l yasashga xizmat qiladi.

*-la* affiksi quyidagi qoliplarda yangi leksema hosil qiladi :

[ot+la] – *ishla, gulla, tuzla, bog'la*;

[sifat+la] – *qorala, tekisla, tezla, tozala*;

[ravish+la] – *qaytala, hozirla...*;

[olmosh+la] – *sizla, senla*;

[taqlid+la] – *gumburla, dukurla... ;*

[undov+la] – *dodla, voyvoyla, tufla...*

*-lan, -lash, -lashtir* kabi murakkab affikslar –

[ot, sifat, son, +lan] – *zavqlan, ajablan, ikkilan...*;

[ot, sifat, son+lash] – *salomlash, tezlash, birlash...*;

[ot+ lashtir] – *rejalashtir(moq), gazlashtir (moq), ekranlashtir(moq)...*

–turli ma'nolarga ega bo'lgan fe'llar yasaydi.

Izoh: Fe'l yasovchi deb ta'riflanib kelinayotgan *-a, -illa, -sira, -k/ik, -q/iq, -ira, -i, -r/ar, -y/ay* kabilar kamunum affikslar sanaladi. Bular bugungi kunda juda kam miqdorda fe'l yasashga xizmat qilyapti.

**Bilib oling.** Bir qator fe'llar transpozitsiya (konversiya) usulida boshqa turkumga ko'chganligi kuzatiladi.

Odamlar bir manzildan ikkinchisiga ko'chib o'tganlaridek, so'zlar ham bir turkumdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi mumkin. So'zlarning bir

turkumdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi ma'lum qonuniyatlarga ega. Hozirgi kunda fe'l so'zlarning otga ko'chganligini quyidagi hollarda kuzatamiz:

1. O'zak holidagi fe'llar: *kurash, yel, kengash, shish, yuq, ich, ko'ch, qir.*
2. Birgalik nisbatdagi fe'llar: *o'ynash*
3. O'zak holidagi juft va takroriy fe'llar: *ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur, chopa-chop.*
4. Harakat nomining -v, -uv,- sh, -ish, -r/ar qo'shimchalarini olgan sodda, juft fe'llar va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari: *saylov, ishlov, uquv, chanqov, qatnov, qistov, tintuv, maqtov, tergov, to'lov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qiziqish, o'qish, o'tirish, qarash, muyulish/burulish, burulish (o'zgarish ma'nosida); yozuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, bosar-tusar, ko'rolmaslik, kiraverish.*
5. Aniq (yaqin) o'tgan zamon shaklidagi sodda, juft va takroriy fe'llar: ko'rdi (marosim), keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi, mindi-mindi (bolalar o'yinining nomi).

Sifatga ko'chgan fe'llarga esa aniq(yaqin) o'tgan zamon shaklidagi juft fe'llar va fe'lli birikmalar misol bo'ladi; oldi-qochdi (gap), kuydi-pishdi (ayol), iliguzildi (vaqt), ichakuzdi (hangomalar), supraqoqdi (farzand, ya'ni so'nggi farzand).

Fe'lda quyidagi nisbat shakllari mavjud.

1. Aniq nisbat.
2. Majhul nisbat va o'zlik nisbat.
3. Orttirma nisbat.
4. Birgalik nisbati.

Fe'ning vazifa turlari (funktional shakllari) to'rt turga bo'lib o'rganiladi: sof fe'l shakli, harakat nomi, sifatdosh shakli, ravishdosh shakli.

Mayl kategoriyasi. Fe'lda quyidagi mayllar ajratiladi:

- a) xabar mayli;
- b) shart mayli;
- c) buyruq-istak mayli;
- d) maqsad mayli.

Zamon kategoriyasi. Fe'lda zamonning uch xususiy ko'rinishi farqlanadi:

- a) o'tgan zamon;
- b) hozirgi zamon;
- v) kelasi zamon.

**I topshiriq.** Quyida berilgan misollardan fe'llarni topib, leksik-grammatik tahlil qiling. Harakat va holat fe'llarini tasniflang.

1. Egizakni ko'p tug'ar qo'ylar, Ko'payadi suruvga tuyuq. (Mirmuhsin)
2. Eshitgan quloq nima deydi. (H. G'.)
3. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz.
4. O'ttizga kirsam ham cho'chib turaman, Ko'zim tushsa oq xalatlarga. (E. Vohidov)
5. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini

uzundan-uzoq duo qildi. (I. R.) 6. Qulingizdan qolgan yolg'iz tirnoq bu. (Y. Sulaymon) 7. Qishloq uyg'onmoqda. 8. Quvnoq tongning oltin bo'sag'asida, Tongni kutar quvnoq ming-ming ko'z. (Mirmuxsin)

**II topshiriq.** Fe'l ishtirok etmagan she'riy misra, maqol, hikmatli so'zlardan namunalar keltiring.

Namuna: Yaxshi so'z - jon ozig'i, yomon so'z - bosh qozig'i. (Maqol)

**III topshiriq.** Nutqimizdagi faol va nafaol fe'llarga misollar keltiring. Fe'l turkumiga oid sheva so'zlarga misollar toping.

Masalan: *yugurdi, o'qidi, ishladi, bordi, keldi, dam oldi, uxladi* (faol fe'llar), *irod etdi (nutq irod etdi), bayon ayladi, muntazir bo'ldi, so'yladi, no'sh etdi, intiq bo'ldi* (nafaol fe'llar).

**Shevaga oid fe'l so'zlar:** *boropti, kelopti, chaqchaq qildik, kelli, ketti* va h.k.

**3-mashq.** O'zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlarida yaratilgan ijod namunalaridan fe'llarni toping, ularning leksik-grammatik tabiatini izohlang.

1. Jondin seni ko'p sevaymen, ey umri aziz. (A.Navoiy) 2. Zamona kulfatidin bu ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi, Bu charxi bemuruvvatdan ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi. (Uvaysiy) 3. Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar. (Furqat) 4. Kel, ey soqiy, ketur paymona bizga, Inoyatlar qilur jonona bizga. (Xorazmiy)

**IV topshiriq.** Mumtoz adabiyot namunalaridan parchalar ayting fe'llarni izohlang.

**V topshiriq.** Bir ma'nosi bilan fe'l ma'noviy guruhining muayyan bir turiga, ikkinchi ma'nosi bilan boshqa turga tegishli bo'lgan fe'l qatnashgan gaplar tuzing.

Masalan:

1. Daraxtlarning tanasini **oqlab** yurgan chol yengi bilan peshonasini arta turib, shiyponga qarab qichqirdi: Hoy Komiljon! (S.Zunnunova)

2. Men qizni **oqlab**, butun gunohni uning xo'jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm eksplatatsiya qilgan kishiga qo'ymoqchiman. (A. Qahhor)

**4-mashq.** Berilgan gaplardagi fe'llarni topib, grammatik ma'no ifodasini batafsil izohlang.

1. Shu payt tog' cho'qqisidan katta bir tosh yumaladi va yo'lidagi boshqa toshlarni qo'porib, dahshatli toshbo'ron boshlandi. (S.Ayniy) 2. Uzil-kesil javobimizni o'n kundan so'ng xabar qilamiz. (O. Mo'minov) 3. –

Kim aytdi sizga meni toshbag'ir deb, – kampir arqonga yopishdi. (Gazetadan) 4. Baland g'isht poydevorli to'rt uy, dahliz, devoriga tolgul va bo'yni uzun oftobaning surati solingan baland ayvon, oshxona. (A. Qahhor) 5. Quv, epchil, dag'dag'ali alloflar qo'llari, og'izlari, ko'zlari bilan ishlab, tosh-tarozidan urib, beva-bechorani ovlaydilar. (Oybek) 6. O'g'ilcha bilan qizchasi dadam xo'rozqand olib keladilar, deb ko'z tikib o'tiribdimi? (Sh. Toshmatov)

Namuna: Shu payt tog' cho'qqisidan katta bir tosh yumaladi va yo'lidagi boshqa toshlarni qo'porib, dahshatli toshbo'ron boshlandi. (S.Ayniy)

*Yumaladi* - fe'l, mustaqil fe'l, harakat fe'li, sodda tub fe'l, aniq nisbatda, bo'lishli fe'l, fe'lning vazifa shakliga ko'ra sof fe'l, o'timsiz fe'l, xabar mayli, o'tgan zamon, III shaxs birlikdagi fe'l.

**5-mashq.** Donishmandlarning nutq odobi borasida aytgan quyidagi fikrlarida qo'llangan fe'llar tarkibidagi munosabat shakllarini belgilab, izohlang.

1. Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysen. Agar so'z aytib so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas. (Kaykovus) 2. Agar odamning so'zi lanj, og'ir, poyma-poy, no'poq, mujmal, qovushmagan bo'lsa, har qalay, uning zehni ham o'shanday. (I.Gerder) 3. Til aniqlik va ifodalilikka oddiylik va ixchamlik orqali erishadi. (A.N.Tolstoy) 4. Kim ravshan fikrlasa, u ravshan bayon etadi. (N.Bualo) 5. Nutqlarida teranlik yetishmagan notiqlar bu nuqsonlarini ezmalik bilan to'ldiradilar. (Sh.Monteske) 6. Fikr ravshanligi va ifoda aniqligi, odatda, birga keladi. (T.Makoley) 7. Agar notiq gapirmoqchi bo'lgan narsasini mukammal bilmasa, notiqligi uch pul. (Sitseron) 8. So'zdagi aniqlik faqat uslub talabi, yaxshi did talabigina bo'lib qolmay, balki eng avvalo, ma'no talabidir: qayerdagi lanj gap bo'lsa, u yerda fikr ham sayoz bo'ladi. (K.A.Fedin)

**Eslatma:** Fe'l affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasaladi. Hozirgi kunda fe'lning affiksatsiya usulida yasalishiga *-la, -lan, -lash, -lashtir, -lantir* kabi shakllar xizmat qilyapti. Bular unumli fe'l yasovchi affiks sanaladi. Qolgan fe'l yasovchi deb ta'riflangan affikslar o'z unumdorligini yo'qotgan.

**VI topshiriq.** T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridan olingan quyidagi yasama fe'llarni tahlilga torting. Ma'nosini izohlang.

1.Yo'l, majnuntol soyalab o'tardi. Bobomiz ana shu yo'ldan sahar-sahar dalalaydi. 2. Men buxchamni orqalatib tashqarilayman. 3. Qaldirg'ochlar afg'on yurtga safarlabdi, kuz oxirlabdi-da.

**VII topshiriq.** Misollardagi *-lan, -lash* fe'l yasovchi affikslar bilan hosil bo'lgan fe'llarni kuzating. Misollarni davom ettiring.

1. [Navro'z] o'smalangan, surmalangan qosh-ko'zingdan aylanay. (T.Ahmad) 2.Jim turing, shovqinlanmang...(Qo'shiqdan) 3.Shamolga qo'shilib uchaman endi, olovga kuyaman, olovlanaman. (Sara)

4. Abadiy lol tog'lar tillashdi,  
Qizil tan-u oqlar dillashdi,  
Tashna dilman,dardlashaylik,  
Ko'ngil ochib dunyolashaylik. (Farida Afruz)

**6-mashq.** Quyida berilgan fe'llarni tarkiban tahlil qiling. Qatorni davom ettiring. Jonlantirmoq, virussizlantirmoq, salomlashtirmoq, videolashtirmoq, vaucherlashtirmoq, joylashtirmoq, tijoratlashstirmoq, zavqlantirmoq, intensivlashtirmoq...

Masalan: jon+lan+tir, virus+siz+lantir

**VIII topshiriq.** Badiiy asarlardan *-a, -i, -illa, -(a)y, -(a)r, -sira* unumsiz fe'l yasovchilar ishtirok etgan misollar toping.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek tilida fe'llarning mavqeyi haqida gapiring.
2. Fe'l turkumining tarixi haqida nimalarni bilasiz ?
3. Fe'lning lug'aviy ma'no guruhlarini sanang.
4. Zamon, shaxs-son, mayl ko'chishini tushuntiring.
5. Fe'l yasalishi haqida gapiring

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.

5. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлири филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

## 2-MAVZU: OT SO'Z TURKUMI

### Reja:

1. Otning o'rganilish tarixi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari
2. Ot yasalishi
3. Otni tasniflovchi kategoriyalar
4. Otning nokategorial shakllari

*Tayanch soʻz va iboralar: ot turkumi, otning grammatik maʼnosi, ot kategoriyasi, son, egalik, kelishik kategoriyasi, otning nokategorial shakllari.*

Kim? nima? soʻroqlariga javob boʻlib, yakka shaxs, narsa nomlarini, bir turdagi jonli va jonsiz narsa-buyum, voqea-hodisa, harakat-holatlarining umumiy nomlarini atab keladigan soʻzlar ot turkumiga kiradi. Ot morfologik jihatdan oʻziga xos morfologik paradigmalarga ega.

Son paradigmasi. Otlarning *-lar* qoʻshimchasini qabul qilmagan koʻrinishi birlik son shaklini, *-lar* qoʻshimchasini qabul qilgan koʻrinishi esa koʻplik son shaklini hosil qiladi.

*-lar* shaklining quyidagi XGMLari ham mavjud:

1. Jamlilik ifodalash.
2. Taxmin ifodalash.
3. Kuchaytirilgan maʼno ifodalash va h.k..

Otlardagi yana bir lugʻaviy shakl bu kichraytirish-erkalash shaklidir. Kichraytirish-erkalash shakli *-cha, -gina (-kina, -qina), -(a) loq, -choq* va *-chak* qoʻshimchalari bilan hosil boʻladi.

Turdosh otlar bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiradi. Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga koʻra muayyan va mavhum maʼnoli otlarga, xayolan haqiqiy deb tushuniladigan mavjudotlarni atovchi otlar (dev, pari, ajdaho)ga ajratiladi.

Muayyan otlar ichida quyidagi LMG larni ajratish mumkin:



- 1) modda nomlari: *oltin, kumush, qum, suv*;
- 2) shaxs tavsifi nomlar : *yigit, chol; o'zbek, qirg'iz; bek, boy; cho'loq, kasal; kosib, qassob; ona, ota; novcha, baqaloq; olim, dono*;
- 3) buyum nomlari: (*qalam, kitob; cho'mich, kosa; gilam, sholcha; belkurak, omoch*);
- 4) o'simlik nomlari: *daraxt, buta, o't*;
- 5) o'rin-joy nomlari: *qishloq, shahar, sahro*;
- 6) miqdor nomlari: *misqol, botmon, hovuch*;
- 7) payt, vaqt nomlari: *kun, fasl, tong, kecha*;
- 8) tashkilot, muassasa va joy nomlari: *maktab, idora, do'kon, bozor*.

**I topshiriq.** Berilgan hikmatli so'zlardan otlarni belgilang. Ot bo'yicha bilimlaringizni sinab ko'ring.

1. Aytilgan so'z – otilgan o'q. 2. Dorining achchig'i yaxshi, So'zning – shirini. 3. Yomon gapning oyog'i olti. 4. Iliq so'z – shakar, sovuq so'z – zahar. 5. Oz gapir – soz gapir. 6. Sabr qilgan moy oshar, Olqish olgan ko'p yashar. 7. Til – aql bezagi. 8. Til – dil tarjimoni. 9. Tili shirinning do'sti ko'p. 10. Uzun til – umr zavoli.

**II topshiriq.** Tarixan eskirgan otlarga misollar toping. Ularni otning ma'no jihatdan turlari bo'yicha tahlil qiling.

Masalan: *mingboshi* – eskirgan shaxs oti, qo'shma ot.

**III topshiriq.** Tarixiy asarlardan eskirgan so'z (ot) ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.

**7-mashq.** Quyidagi she'riy parchadagi otlarni atash, ifoda, vazifa semasiga ko'ra tahlilga torting.

#### Qanot

Insonga qanot yo'q,  
 Achinmang bunga.  
 Zotan unga yurak – sabot berilgan.  
 Qushda-chi sabot yo'q shuning-chun unga  
 Qochib qolmoq uchun qanot berilgan. (A.Oripov)

**IV topshiriq.** "O'zbek tilining imlo lug'ati" dan foydalanib, atoqli va turdosh otlar imlosi haqida gapiring.

Eslatma:

#### Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat, Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy*, (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov) *Qoratog', Pomir* (tog'lar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar) , *Yoyilma*(kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar] kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "*Tong*" (mehmonxona) "*Saodat*" (firma), "*Navro'z*" (xayriya jamg'armasi), "*Kamalak*" (matbaa birlashmasi), "*G'uncha*"(bog'cha), "*Botanika*"(sanatoriy), "*Qutlug' qon*" (roman), "*Dilorom*"(opera), "*Tanovar*"(kuy), "*Ozodlik*"(haykal), "*Jasorat*"(yodgorlik), "*Sino*" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respub-likasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari; Mudofa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Qahramoni*" (unvon) *Oltin Yulduz*" (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'lom avlod uchun*" (orden), *O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi*" (faxriy unvon), *Matbaa a'lochisi*" (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O. Yoqubov).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar*

*Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.*

**8-mashq.** Gapnlarni ko'chiring. Bosh harflar bilan yozilgan so'z va so'z birikmalarini qaysi qoidaga muvofiqligini aniqlang.

1. E. Vohidov va A.Oripov kabi iste'dodli adiblarimiz "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lishgan. 2. E.Vohidovning "Nido" dostoni o'ta ta'sirli yozilgan. 3. A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 1913-yilda yozilgan. 4. Do'stimning opasi SamDUda o'qiydi. 6. Hurmatli K.Akobirov Sizni bu kungi tantanali visol oqshomiga taklif etamiz. 7. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari O'rta Osiyo turkiy tillarining eng bebaho yodgorligidir.

**V topshiriq.** Bosh harf bilan yoziladigan geografik joy nomi, taxallus, tashkilot, orden, medal, adabiy asar, mahsulot nomlariga 10 tadan misol yozing.

**VI topshiriq.** Muayyan va mavhum otlarni tavsiflang.  
Namuna: Muayyan (aniq) otlarni quyidagi LMG larga bo'lish mumkin:

1. Modda otlari:

- a) qurilish ashyolari LMG: *g'isht, sement, taxta*
- b) qimmatbaho metallar LMG: *kumush, mis, oltin*
- c) yonilg'i LMG: *benzin, salarka*
- d) yoqilg'i LMG: *ko'mir, torf*

2. Shaxs tavsifi otlari:

- a. shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG: *ninni, chaqaloq, go'dak, o'smir*
- b. shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG: *aka, uka, singil, xola, tog'o*
- c. shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG: *tadbirkor, fermer, o'qituvchi*
- d. shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG: *qishloqlik, vodiylilik, kogonlik*
- e. shaxsni tashqi belgisi jihatdan tavsiflovchi LMG: *bukri, cho'loq, pakana*
- f. shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi LMG: *laqma, dovdir, jinni, ezma*
- g. shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi LMG: *qul, boy, kambag'al, xasis.*

**Izoh:** Oxirgi uch turdagi soʻzlar sifatdan otga koʻchgan.

3. Buyum otlari: *stol, stul, kitob*

**Izoh:** Buyum otlari oʻz navbatida yana bir qancha turlarga boʻlinadi.

**Masalan:** oʻquv qurollari (daftar, ruchka, kitob), uy-roʻzgʻor buyumlari (supurgi, qolin, kitob javoni), oshxona jihozlari (qozon, choynak, chelak).

4. Oʻsimlik otlari: *daraxt, buta, tok, gul*

**Izoh:** Oʻsimlik otlari oʻz navbatida yana bir qancha turlarga boʻlinadi.

**Masalan:** *mevali daraxt, mevasiz daraxt, poliz ekinlari* va boshqalar.

5. Oʻrin-joy otlari: *mahalla, togʻ, qir, sahro, qishloq, koʻl*

6. Miqdor otlari: *botmon, gramm, tonna, paysa*

7. Vaqt-payt otlari: *soat, daqiqa, asr, tong, kech, tush, namozshom.*

8. Tashkilot va muassasa otlari: *market, bozor, doʻkon, idora, universitet, litsey, maktab* kabi.

**Izoh:** Miqdor va vaqt-payt otlarining aksariyati hisob soʻz boʻlib keladi.  
**Masalan:** V asr, 10 gramm, 6 tonna va h.k.

**9-mashq.** Berilgan misollardan yasama otlarni toping va yasalish asosi, yasovchi vosita, yasalmani izohlang.

1. Aravadagi bir necha bogʻ beda ustida oʻlgan otning **abzallari** yotar edi. (A. Qahhor) 2. **Ablaq** yomon ot boʻladi va uning yaxshi qiligi kam boʻladi. ("Qobusnoma") 3. Alisher choponiga ola-bula yamoq solingan, **adinlari** soʻkilgan, bosh yalang va oyoq yalang darveshni ham koʻrdi. (Oybek) 4. Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi **borligini** birinchi bilar edi. (A. Qodiriy) 5. **Otalik** hissining bebaho, laziz, toʻlqinlari ichra gʻarq boʻlib ketdim. (Gʻ. Gʻulom) 6. Navoiy uch-toʻrt yoshidan boshlab jiddiy, goʻzal sheʼrlar yoza olgan. (Oybek) 7. Qoʻying, boy aka, **urish** yaxshi emas, deb boyning qoʻlini tutdi. (S. Ayniy)

**Eslab qoling:** Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat tarkibida ot soʻz turkumi sirasi yangi soʻzlar bilan boyib borishi faol boʻlib, bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Ot soʻzlarning ortib borishi oʻzbek tilining ichki

imkoniyati va chetdan soʻz oʻzlashtirish bilan bogʻliq. Tan olish kerakki, bunda chetdan soʻz oʻzlashtirish yetakchilik qiladi. Hozirgi lugʻat tarkibidagi oʻzlashmalarning aksariyati ot turkumiga tegishli.

Ichki imkoniyat asosida ot yasashda nisbatan affiksatsiya usuli bilan soʻz yasash faol. Manbalarda 50 ga yaqin ot yasovchi affiks borligi aytiladi. Ammo hozirgi kunda bu affikslarning hammasi ham faol, mahsulli emas. Ularning aksariyati soʻz yasash, yaʼni ot yasash uchun xizmat qilmay qoʻygan. Buning oʻziga yarasha sabablari bor. Masalan, -zor affiksini kuzataylik. Mazkur affiks joy nomini yasovchi qoʻshimcha bolib, asosan, oʻsimlik otlariga qoʻshilib keladi (gulzor, bodomzor, tikanzor, olmazor va h.k.). Koʻrinadiki, -zor affiksi yangi soʻz yasashi uchun lugʻat qatlamimizga biror bir yangi oʻsimlik nomi paydo boʻlishi kerakki, shundagina bu affiks faollashadi. Masalan, *ananas, banan, kivi* va b. mevalar yoki turli xil, manzarali, mevasiz daraxt koʻchatlarining yurtimizda yetishtirilishi -zor affiksini faollashtirishi mumkin, xolos. Mazkur affiksning “yashovchanligi”, “taqdiri” bevosita shu va shu kabi soʻzlar bilan bogʻliq.

Kuzatishlar koʻrsatadiki, ot yasashda faol xizmat qilayotgan yagona affiks “-chi” hisoblanadi. Bu shakl hozirgi kunda ham ot yasashga faol xizmat qilyapti. Masalan, *ekskursiyachi, sensorchi, xotdogchi, dasturchi, bananchi, mandarinchi, ananaschi, kivichi* kabilar -chi affiksi bilan soʻz yasalişning yangi tiplari sanaladi.

**10-mashq.** Qavs ichidagi soʻzlarni chiziqcha bilan, qoʻshib, ajratib yozing. Otlarni mazmunan, tarkiban izohlang.

Oʻrta(Chirchiq), orom(baxsh), har (kun), sheʼr(yurak), temir(tersak), och(yashil), kiyim(kechak), rang(barang), achchiq(tosh), toʻq(qizil), oz(moz), toʻrt(koʻl), eks (champion), qiyma(taxta), unter(ofitser), qoʻzi(qorin), taklif(noma), kirdi(chiqdi), bir yuz yigirma(besh), sotib(olmoq), koʻk(sulton), yer-u(koʻk), yuzma(yuz), tasdiq(qildi), gʻayri(tabiiy), baqa(terak), jigar(rang), kilovatt(soat).

**11-mashq.** Quyidagi juft soʻzlardan qaysilari maʼno imkoniyatini kengaytirgan.

Azob-uqubat, alam-hasrat, yer-koʻk, chol-kampir, baxt-taxt, oʻgʻil-qiz, igna-ip, yem-xashak, or-nomus, togʻ-tosh, mol-mulk, murod-maqsad, qish-u yoz, savol-javob, koʻrpa-toʻshak, nevara-chevara, achchiq-chuchuk, yaxshi-yomon, uzoq-yaqin, qoʻy-qoʻzi.

**VII topshiriq.** Badiiy asarlardan murakkab otlar ishtirok etgan gaplar yozing.

**VIII topshiriq.** Otning munosabat shakllari haqida ma'lumot bering. Ularning uslubiy imkoniyatlarini izohlang.

**12-mashq.** Til va nutq haqidagi quyidagi gaplarni o'qing va otning munosabat shakllarini topib, sharhlang.

1) Odamlarki bor, bisotidagi bir hovuch so'zni aylantirib, oyligini olaveradi, o'qish-o'rganish bilan o'zbek tilining imkoniyatidan to'laroq foydalanishni istamaydi yoki bunga farosati yetmaydi.(A.Qahhor)

2) Tilga bir xillik uchun emas, aksincha, tildagi bo'shliqni pardalab turuvchi adabiy til bir xilligi bo'lmasligi uchun ham tilning barcha jabhalarini sof holda tutmoq lozim. (A.N.Tolstoy)

3) Tilning sofliqi, ma'no aniqligi, o'tkirligi madaniyat quolidir. (J.J.Russo)

4) Har qanday benatija so'z bema'ni va quruq bo'ladi. (Demosfen)

5) Odam tili bilan hayvondan ustun, ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar. (Sa'diy)

**IX topshiriq.** Otning lug'aviy shakllari bo'lgan -jon, -xon,-oy,-cha, -gina, -loq,-chak kabilarni izohlang. Ularning shakldoshligi, uslubiy imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.

Namuna: «-xon» ham ot yasovchi (kitobxon), ham otning erkalash shakli (Olimaxon). Mazkur shakl affiksoid sanaladi. Asosan qizlar ismiga, Toshkent, qisman Vodiyda yigitlar ismiga qo'shiladi: Nodirxon, Anvarxon va h.k.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. So'z turkumlari tizimida otning o'rni haqida gapiring.
2. Otning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari deb nimaga aytiladi.

3. Otning diaxron, sinxron yasalihi xususida nimalarni bilasiz? Otda soddalanish hodisasini tushuntiring.
4. Kompozitsiya usulida ot yasalihi haqida ma'lumot bering.
5. Otda xos kategorial, nokategorial shakllar haqida o'z fikrlaringizni bildiring.
6. Ot uslubi deganda nimani tushunasiz?

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013 б.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

#### **4-MAVZU: SIFAT SO'Z TURKUMI**

##### **Reja:**

1. Sifat va uning o'rganilish tarixi
2. Sifatning leksik-grammatik ma'nosi
3. Asliy, nisbiy sifat
4. Sifat derivatsiyasi
5. Sifat darajasi
6. Sifat va boshqa mustaqil so'z turkumlari

*Tayanch soʻz va iboralar: Sifatning tarixiy shakllanishi, asliy, nisbiy sifat, sifat darajasi, sifat derivatsiyasi, sifat va boshqa soʻz turkumlari.*

Narsa-buyumalar, voqea-hodisalarga xos boʻlgan belgi-xususiyatlarni ifodalovchi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifasida keluvchi mustaqil soʻz turkumi sifat hisoblanadi. Sifatlar barqaror yoki turgʻun belgini ifodalash maʼno xususiyati bilan boshqa maʼnoviy turkumlardan ajralib turadi. Turgʻun belgi deganda belgining harakatsizligi, barqarorligi, holatning qanday boʻlsa, shunday aks ettirilishi tushuniladi. Turgʻun belgi shu jihati bilan oʻzgaruvchan (dinamik) belgidan farq qiladi.

Sifatlar oʻz navbatida asliy sifatlar va nisbiy sifarlarga ajratiladi.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, oʻrin va harakatga nisbatan ifodalaydi: pishiq gʻisht, *oilaviy janjal*, *devoriy gazeta* va h. k.

Sifatlarda belgining darajasini ifodalashga koʻra uch turga boʻlinadi:

1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja.

Oddiy daraja shaklida hech qanday qoʻshimcha yoki yordamchi soʻz boʻlmaydi. U belgining darajasini aniq koʻrsatmaydi. Qiyosiy daraja shakli –*roq* qoʻshimchasiga ega va u belgining qiyoslanayotgan, solishtirilayotgan boshqa belgidan koʻproq yoki ozroq ekanligini bildiradi. Bu matndan anglashiladi.

Orttirma daraja shakli yordamchi soʻzlar vositasida yasaladi va belgining meʼyordan ortiqqligini ifodalaydi. Bunday maʼnoni beruvchi soʻzlar *eng, juda, gʻoyat, bagʻoyat, oʻta, benihoya* kabi vositalar bilan hosil boʻladi. Shuningdek, qip-qizil, sap-sariq, bus-butun, dum-dumaloq, koʻm-koʻk tarzidagi sifatlar ham orttirma darajadagi sifatlarni yuzaga keltiradi.

Sifatlar semantik jihatdan quyidagi turlarga ajraladi:

I. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar inson xarakter-xususiyatini ifodalashda qoʻllanadi. Masalan, *shoʻx, yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd* kabilar. Xarakter-xususiyat ijobiy hamda salbiy boʻlishi mumkin. Ijobiy maʼnoli koʻrinishga *zukko, harakatchan, xushbichim, mirishkor, odobli* kabi soʻzlar misol boʻlsa, salbiy maʼnoli koʻrinishiga *yoqimsiz, yaramas, xasis, ziqna, qoʻpol, oʻjar* soʻzlari kiradi.

II. Holat bildiruvchi sifatlar. Narsa-hodisa, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanadi. Holat bildiruvchi sifatlar maʼno jihatdan quyidagi MG larga boʻlinadi:

1. Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlar.

a) ijobiy maʼnoda: *goʻzal, moʻmin, oʻktam*.

b) salbiy maʼnoda: *choʻloq, bukir, xunuk* (bunda nuqsoniy belgilar hisobga olinadi).



2. Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh, zaif, nimjon, keksa*.
  3. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: *xursand, xafa, hushyor, darg'azab, g'amgin, ma'yus, tajang*.
  4. Kishining iqtisodiy holatini ifodalovchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag'al, gado, yetim, bechora, mushfiq*.
  5. Predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar: *iliq, salqin, sovuq, issiq*.
  6. Tozalik belgisini ifodalovchi sifatlar: *toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt*.
  7. Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *yangi, eski, uvada, juldur* va sh. k.
  8. Predmetning pishgan va xomlik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *xom, g'o'r, dumbul, pishiq, puxta* va sh. k.
  9. Predmetning ho'l - quruqlik holatini ifodalovchi sifatlar: *ho'l, nam, namxush, namtob, quruq, shalabbo*.
  10. Tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta, notinch*.
  11. Sirtqi qism belgisini ifodalovchi sifatlar: *silliq, g'adur-budur, g'ijim, tekis, zich, qalin, yupqa*, va sh.k.
- III. Shakl-ko'rinish anglatuvchi sifatlar. Bunday sifatlar predmetning turli ko'rinishlarini, shakl belgilarini ifodalash uchun qo'llanadi: *dumaloq, yassi, yapaloq* kabilar. Bunday sifatlar holat bildiruvchi sifatlar bilan ba'zan mos kelishi mumkin: *semiz, ozg'in, pachoq* kabi. *Semiz hamshira qo'pol etiklarini do'qillatib ildam ketdi (Oybek)*.
- IV. Rang-tus ifodalovchi sifatlar. Bunday sifatlar predmet, inson, hayvon (a'zolari)ga tegishli rang belgisini bildiradi: *qizil, zangori, ko'k, qora*. Rangni ifodalovchi sifatlar o'rnida ba'zan predmet nomlaridan ham foydalaniladi: oltin kuz, zumrad bahor, feruza osmon kabi.
- V. Maza-ta'm sifatleri. Bunday sifatlar maza-ta'mni ifodalashga xizmat etadi: *sho'r, shirin, achchiq, nordon, chuchuk, bemaza* kabi.
- IV. Hid bildiruvchi sifatlar: *muattar, iforli, badbo'y, sassiq, xushbo'y* kabi.
- VII. Miqdor sifatleri. Predmetning miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi: *ko'p, mo'l, oz, serob, kamchil* kabi.
- VIII. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar. Bu turkumga taalluqli sifatlar ko'pincha ot turkumidagi so'zlardan *-gi, -ki, -dagi* yasovchilari vositasida hosil qilinadi: *tonggi, tungi, kuzgi, ko'chadagi, kechki, sirtqi* va sh.k. Bunday sifatlar zamon va makon sifatleri deb ham yuritiladi.
- IX. Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar narsa-hodisalarning og'irlik o'lchami, vazni, uzunligi, hajmini ifoda etadi: *og'ir, yengil, uzoq, yaqin, olis, katta, kichik, ulkan* va h.k.
- Sifatlar yasalishida *-li; -dor; -mand; -gi (-ki); -iy, -viy; -dagi; -simon; ba;-bo;- be;- ser;- no;- -kash, -ik,-iq, -uk, -uq; -kin, -qin, -gin, -g'in, -gun; -gir, -kir, -qir, -g'ir; -ag'on; -choq* kabi qo'shimchalar ishtirok etishi aytiladi.

**Izoh:** Hozirgi kunda sifatning affiksatsiya usuli bilan yasashida asosan, -li, -siz shakllarigina xizmat qilyapti. Qolgan affikslar allaqachon o'z unumdorligini yo'qotgan. Qo'shma sifatlar (*kunbotar, osmono'par, tezyurar, beshotar, bodomqovoq, sheryurak*) leksikolizatsiya hodisasi sanaladi.

**I topshiriq.** "Qobusnoma"dan olingan ushbu parchadagi sifatlarni aniqlang, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini belgilang.

So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq orasida gapiradigan so'zning go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin". Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish, shaklga e'tibor berish kerakligini, to'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri va asosli bo'lmog'i lozimligi, beshinchidan, nutq ilmiy asosga ega, ta'sirchan bo'lishi lozimligini aytadi. Ulug' donishmand yozadi: "Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm-ma'rifatni bilaman deb da'vo qilsang, hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan.

**II topshiriq.** Berilgan so'zlarni sifat LMGlari bo'yicha guruhlab chiqing. Qatorni davom ettiring.

Orasta, bardam, kuzgi, ichki, achchiq, taxir, ko'hna, badavlat, ma'yus, baxtli, xafa, tinch, chiroyli, zangori, moviy, tashqi, sho'r, puxta, bezovta, badjahl, iliq, siniq, ijtimoiy, novcha, uzunroq, tor, xushbo'y, ol, pushti, toza, g'ilay, nochor.

**III topshiriq.** Sifatning ma'no jihatdan turlarini ichki guruhlarga bo'lib, misollar bilan to'ldiring.

**Masalan:** o'lchov bildiruvchi sifatlar: *keng, og'ir, yengil, buyuk, uzun va b.*

- og'irlik o'lchovi: *og'ir, yengil*

- uzunlik o'lchovi: *uzun, qisqa*

- yuza o'lchovi: *keng, tor*

**13-mashq.** Berilgan misollardan sifatlarni toping, leksik, grammatik tahlil qiling.

1. Oh... Qanday soz, chiroyli bu uy! Qara bizga, ey ulug' jahon, bunday quvvat go'zallik qayda! (H.Po'lat) 2. – Qani so'zla, ishlaring yaxshimi, do'stlar qalay, adabiyotda nima yangiliklar bor? – so'radi Ahmad Husayn. (Oybek) 3. Qoramtir, pushti, qo'ng'ir bulut karvonlari Sharqqa

qarab shoshilar edi.(P.Tursun) 4. Alisher Navoiy Astrobodga jo'nab ketdi, ammo uni xalq hech qachon unutmaydi. (Oybek)

*Namuna: chiroyli* - sifat, holat sifati (tabiiy holat), asliy sifat, oddiy darajada, yasama sifat([ot+li]), gapda sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan.

**Eslatma:** Sifatni ma'no jihatdan turlarga bo'lish nisbiy tushuncha. Polisemantik sifatlar dastlabki ma'nosi bilan sifatning muayyan bir guruhiga, qo'shimcha ma'nosi bilan boshqa guruhiga tegishli bo'lishi mumkin.

*Masalan:* og'ir tosh (o'lchov sifati), og'ir tabiatli kishi (xususiyat sifati)

**IV topshiriq.** Yuqoridagi kabi sifatlarga misollar keltiring.

**Bilib oling.** Ayrim otlar rang bildirishiga ko'ra sifatlarga o'xshab ketadi. Masalan: *oltin yaproq, feruza osmon, zumrad bahor* kabi

**V topshiriq.** Yana qanday qimmatbaho moddalar rang bildirish xususiyatiga ega.

Masalan: zabarjad, yoqut, la'l, kumush va ...

**VI topshiriq.** Oq, qora, yashil, qizil kabi sifatlarni ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar tuzing.

Masalan, *qora, oq* sifatlari Z. Pardayevning "O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari" nomzodlik tadqiqotida quyidagi ma'nolarda kelishi izohlanadi: *qora kun, qora yel, qora yuz, qora qish, qora nuqta, qora shamol, qora o'q, qora ich, qora tarix, qora iz, qora kuch, qora savdo, qora chiziq, qora rang, qora zindon, qora libos, qora odat, qora qanot, qora ter, qora ro'zg'or, qora sahifa.*

*Oq daryo, oq buloq, oq tog', oq shom, oq dil, oq ko'ngil, oq kabutar, oq sut, oq podsho, oq niyat, oq peshona, oq bo'za, oq dunyo, oq oltin.*

Misollar: 1. Ana shunda bu qora odat, qiz baxtiga urgan edi. (H. Olimjon) 2. Huv...qor uzra yelib borar bir qora nuqta. (M.Ali) 3. O'tdi dahshatli kun, Qora sahifa. (E.Vohidov) 4. Ro'zg'oring qora qilmay. (E.Vohidov)

1. O'n sakkiz yoshimda, oppoq singlim, G'uncha nafasiday pok singlim. (A.Suyun) 2. Ertasi... Ishongum, baxt kabi oppoq. (A.Suyun) 3. Oq suting oqlagan esak, Ona, bas. (M.Ali)

**14-mashq.** Quyida berilgan hikmatlar tarkibidagi sifatlarni belgilang, asliy, nisbiy turlarga bo'ling.

Og'izga kelganni demoq nodonning ishi,

Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi.

(A.Navoiy)

Soʻz ichra mudom aql yashirindir,  
Soʻz chimildigʻ-u aql kelindir.

(N.Xisrav)

Qisqa soʻzlik, qara, ne yaxshi holdir,  
Sergaplik boʻlsa-chi, dilga maloldir.

(X.Dehlaviy)

Soʻz bilan ifodalangan har qanday fikr taʼsir koʻlami tugamaydigan kuchdir.

(L.N.Tolstoy)

Oʻtkir til toʻxtovsiz intilish davomida yanayam charxlanadigan birdan-bir keskir quroldir.

(U. Irvinch)

Soʻz sehridan kuchliroq sehr yoʻq.

(A.Frans)

Iboralar – fikrlar ustiga kiydirilgan oʻziga xos libosga oʻxshaydi.

(I.Engel)

Kimki, andishasiz soʻzlasa javob,  
Soʻzi eʼtiborsiz, chekar iztirob.

(S.Sheroziy)

Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu oʻz fikrini til vositalari orqali toʻgʻri, aniq va taʼsirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir.

(S.I.Ojegov)

**VII topshiriq.** [ot+li], [ot+dor], [ot+siz], [ser+ot], [ba/bo+ot], [be,no+ot], [ot+gi/ki/qi], [ot+simon], [ot+parvar] va boshqa sifat yasash qoliplari asosida soʻzlar yasang. Unumli, unumsiz sifat yasovchi affikslar haqida xulosa chiqaring.

**VIII topshiriq.** Qoʻshma, juft, takror sifatlar qatorini tuzing. Ularning tarkiban tahlilga torting. Maʼno imkoniyatlarini belgilang.

**Masalan:** soʻrpehona, kaltafahm, kamqon, devsifat, umumjahon, ertapishar, kechpishar va h.k.

**IX topshiriq.** “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” dan foydalanib, *muxtasar, mufassal, kemptik, maʼsum, dilgir, hamiyatli, tamizli, dilkash, mahzun, orasta, beibo, soʻlim, daligʻuli, loqayd, sermulohaza, latif, farzona, tanti* kabi soʻzlarni izohlang. Shu soʻzlarni qatnashtirib bogʻli matn tuzishga harakat qiling.

**X topshiriq.** Sifatlardan kelib chiqqan antroponimlarga misollar ayting. Masalan: Qahramon, Nodir, Aziz...

**15-mashq.** Berilgan gaplar tarkibidagi sifatlarni semantik, morfologik, sintaktik tahlilga torting.

1. Keyinroq ham ko`zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o`xshash jo`n odamlarning shuuriga sig`masdi. (Murod Muhammad Do`st) 2. Bilmaydiki, ishining chatog`i chiqqanida Chorshanbi emas, uning o`zi qochib ketadi, Chorshanbi qurg`ur tagiga suv ketishi bilan mening yonimga yugurib keladi, men uni qutqarib olaman, ikki o`rtada Suyarqul ukamizning qurbon bo`lgani qoladi. (Murod Muhammad Do`st) 3. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko`zlari dumaloq shakl olgan edi. (Oybek) 4. Agar kishi o`z hirslaridan ustun tura olsa, u o`zidagi bor nuqsonlarni yo`q qiladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi. (Beruniy)

**Namuna:** 1. Keyinroq ham ko`zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar **keng** ediki, bu kengliklar bizga o`xshash jo`n odamlarning shuuriga sig`masdi. (Murod Muhammad Do`st)

**Keng** so`zining semantik tahlili.

Atash ma`nosi – belgi; biror narsa-hodisaning o`lchovi, hajmini bildiradi; ko`chma ma`noda ham kela oladi: *Yuragingiz muncha ham keng bo`lmasa, ko`zingizga uyqu kelganiga hayronman.* (A.Qahhor)

Keng sifati tor sifati bilan antonimlikni hosil qiladi. Etimologiyasiga ko`ra turkiy so`z. Kengga keng dunyo, torga tor dunyo. (Maqol) Bu misolda keng sifati otlik (narsalik) belgisini olgan (otlashgan).

**Keng** so`zining morfologik tahlili.

Morfologik xususiyatiga ko`ra: asliy sifat, oddiy darajada, tub sifat; *kengaymoq* so`zida -ay affiksi bilan fe`l yasalganini kuzatamiz.

**Keng** so`zining sintaktik tahlil.

Keng sifati gapda *edi* to`liqsiz fe`li bilan ot-kesim bo`lib kelgan, qo`shma gap tarkibidagi bosh gap kesimi.

**XI topshiriq.** Sifatdan boshqa turkumlarga, boshqa so`z turkumlaridan sifatga ko`chgan so`zlar guruhini tuzing.

Masalan:

Sifatdan otga ko`chgan so`zlar: *o`g`il, qiz, keksa, er, xotin*

Fe`ldan sifatga ko`chgan so`zlar: *daydi, qari, kelishgan (yigit), kuydi-pishdi (ayol)* va ...

**XII topshiriq.** Sifatda kuzatiladigan polisemiya, sinonimiya, antonimlikka misollar toping. Ular ishtirokida matn tuzing.

**XIII topshiriq.** Sifat uslubiyati borasida nimalarni bilasiz?

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Sifat so'zlarning tarixiy kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbek tilida mazkur so'z turkumini qaysi tilshunos olimlar tadqiq etgan?
3. Sifatning lug'aviy-grammatik ma'nosi haqida gapiring.
4. Sifat derevatsiyasini tushuntiring
5. Sifat darajasi haqida ma'lumot bering
6. Sifatning boshqa mustaqil so'z turkumlari bilan munosabati haqida gapiring.

### ADABIYOTLAR :

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
4. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
5. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2009.
6. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1974 йил.
7. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975.
8. Мамаражабова З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номз. ...дис. автореф. Тошкент: 2004.
9. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Самарқанд: 2004.

## 5-MAVZU: SON SO'Z TURKUMI

### Reja:

- 1.Son, uning UGMsi.
- 2.Son turkumining shakllanish tarixi.
- 3.Sonning lug'aviy ma'no guruhlari
- 4.Numerativ (o'lchov) so'zlar

**Tayanch soʻz va iboralar:** *son, sonning lugʻaviy-grammatik maʼnosi, son tarixi, numerativlar, numerativ birliklari qoliplari.*

Son narsa-hodisaning son-sanogʻini, tartibini bildiruvchi soʻz turkumidir. Sonlar otlar bilan birga qoʻllanilib keladi, baʼzida feʼl turkumi bilan ham kelib, ish-harakarning miqdorini anglatadi.

Sonlar tabiatiga koʻra:

1. Semantik jihatdan miqdorni nomlaydi.
2. Sintaktik jihatdan turli gap boʻlagi vazifasida keladi.
3. Morfologik jihatdan oʻzgaradi.
4. Sonning oʻziga xos lugʻaviy shakllari mavjud: *toʻrttadan, bitta, oʻntacha, uchov, birinchi* kabi.
6. Son narsa miqdorini turli tomondan aniqlash uchun sanoq bilduruvchi soʻzlar -- numerativlar (hisob soʻzlar) bilan qoʻllanadi: *bir siqim tuproq, bir qop un, ikki gektar, besh tonna* kabi.

Sonlar maʼno ifodasiga koʻra sanoq, dona, chama-taxmin, jamlovchi, taqsim, kasr, tartib sonlar kabi maʼnoviy guruhlarga boʻlinadi.

Sanoq sonlar son (miqdor) nomlarini, narsa-buyumlarning son-sanogʻini ifodalab keladi. Sonning bu turi boshqa soʻzlarga bogʻlanmagan holda, mustaqil ravishda qoʻllana oladi. Sanoq sonlarning maxsus grammatik shakli mavjud emas.

Dona son predmetlarni donalab koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Dona son - *ta* affiksi bilan hosil boladi.

Chama sonlar predmetning noaniq miqdorini, taxminiy hisobini ifodalaydi. Cama son sanoq songa *-lab, -tacha, -cha, larcha* qoʻshimchalarini qoʻshish bilan hosil qilinadi. Shuningdek, sonlarni juftlab keltirish bilan ham hosil boʻladi: *Uch-toʻrt yildan soʻng kattagina daraxt boʻladi.* (M. Ismoiliy)

Jamlovchi son jamlash, birgalik maʼnolarini ifoda etadi. Sonning bu turi - *ov, -ovlon, -ovlab, -ovlashib, -ala* shakllari bilan hosil boʻladi.

Taqsim sonlar narsalarning taqsimlangan miqdor maʼnosini anglatish uchun qoʻllanadi. Sonning bu turi *-tadan* lugʻaviy shakl bilan hosil boʻladi.

Kasr sonlar butunning qismini ifodalash uchun ishlatiladi: *uchdan bir* ( $\frac{1}{3}$ ), *oʻndan ikki* ( $\frac{2}{10}$ ). *Yarim, yorti, chorak, nimchorak, qoq, teng* soʻzlaridan ham kasr sonni ifodalashda foydalaniladi.

Tartib sonlar narsa-buyumning tartib belgisini ifodalaydi. Tartib son - *nchi (-inchi)* qoʻshimchasi bilan hosil boʻladi.

Sonlar tuzilishiga koʻra toʻrt guruhga boʻlinadi:

1. Sodda sonlar: *bir, toʻrt, oʻn* va h.k.
2. Qoʻshma sonlar (murakkab sonlar): *oʻn bir, oltmish uch, bir ming bir* va

h.k.

3. Juft sonlar: to'rt-besh, o'n-o'n besh va h. k.

4. Takror sonlar: o'nta-o'nta, beshta-beshta va h.k.

**I topshiriq.** Son haqida bilimlaringizni tekshirib ko'ring. Bu uchun quyidagi savollarga javob bering.

1. Sonlarning kelib chiqish tarixi haqida gapiring

2. Sonning lug'aviy ma'no guruhlarini sanang.

3. Miqdor son, tartib son haqida gapiring

4. Numerativ o'lchov so'zlar haqida nimalarni bilasiz?

**II topshiriq.** Son qatnashgan maqol, hikmatli so'z, she'riy parchalar ayting.

Masalan:

Yetti o'lchab bir kes. (Maqol)

So'zdan so'zning farqi bor, yetmish ikki narxi bor. (Maqol)

Chin darveshlar tosh ustida toqat qildi,  
Qattiq yerni bistar qilib, odat qildi,  
Yuz ming balo boshga tushsa, toqat qildi,  
Toqat qilmay Haq vasliga yetgani yo'q.

\*\*\*

Yetti ming yil ul Azozil toat qildi

Mag'rur bo'lib toatiga havo qildi. (A.Yassaviy)

**III topshiriq.** Son ishtirok etgan badiiy asarlar nomini sanang

Masalan:

"O'n she'rlar" (M.Shayxzoda)

"O'n ikki buloq" (Oybek)

"Ikki muhabbat" (O.Yoqibov)

"Uchinchi kitob" (M.Shayxzoda)

"Ikki eshik orasi" (O'. Hoshimov)

**IV topshiriq.** 3,7,9,40 sonlari xalq orasida sehrli son deb ta'riflanadi. Shu sonlar ishtirokidagi hayotiy haqiqatlar va afsonalarni eslang.

Masalan: 7 qavat osmon, bir hafta – 7 kun, 7 yoshda maktab tahsiliga bormoq, 7 aka-uka, 7 yoshdan 70 yoshgacha, 7 avlod, 7 pusht (farzand, nevara, chevvara, evara ...) yetti yot begona, 7 iqlim, 7 og'ayni (yulduzlar turkumi)

**16-mashq.** Berilgan misollardagi sonlarni ma'no jihatdan izohlang, sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Yetti uxlab tushiga kirmagan. 2. Bolaning ko'ngliga qarab rasvo qilyapsizlar, yetti xuftonga qadar yurishga chakki o'rgandi. (Oydin)



3.Unga ikki dunyo bir qadam bo'lib qolgan. 4. Ikki enklik xat yozib yubormadingmi? 5. Dadam asli o'sha yerlik ekan-u, bundan yigirma yilmi, o'ttiz yilmi oldin bu yoqqa kelib qolgan. (X.To'xtaboyev) 6.Ming dod denglar, ming faryod denglar, behuda! (Oybek) 7.Bir savdogar o'n toy molni olib, bir zumda qorasini o'chirdi. (Oybek) 8. O'ttizga kirganda o'tin yoradigan o'g'ling bo'lsin. (Maqol) 9.Qirqqa chidagan, qirq birga ham chida. (Maqol) . 10. Yo'ldosh Motamsaro. Onasining janozasi, yigirmasi, qirqi, xatmi qur'on deb ancha chiqimdor bo'lganga o'xshaydi. (S.Anorboyev)

**V topshiriq.** Yuqoridagi misollar tarkibidagi turlangan sonlarni izohlang. Egallik shakllari vazifasini aniqlang.

**Eslang.** Ayrim sonlar o'zaro zidlanib keldi. Masalan: Birni kessang, o'nni ek. (Maqol) Yetti yoshdan yetmish yoshgacha...

**17-mashq.** Numerativ so'zlar qatnashgan quyidagi gaplarni tahlilga torting. Numerativ sonlarni ma'no jihatdan izohlang

1. U ko'rinishidan uyatchan yigirma yashar yigit edi (Oybek) 2. Ammo qiz uzoq ketmadi, o'n qadamcha narida to'xtab boshidagi choponi ichidan bir qiyo boqib qo'ydi. (M. Ismoilov) 3.Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber. (Maqol) 4. Yo'lchi o'z onasidan yuz martalab eshitgan gaplarni Mirzakarimboy hikoya qila boshladi.(Oybek)

**VI topshiriq.** Badiiy asarlardan o'lchov so'zlar qatnashgan misollar topib yozing.

**18-mashq.** Sonlar ishtirokida yuzaga kelgan quyidagi qo'shma so'zlarni tarkiban, mazmunan izohlang.

Qirqoyoq, ikkiyuzlamachi, uchburchak, to'rtburchak, biryoqlama, Uchtepa, Oltiariq, Yettisuv, To'rtko'l, Uchko'prik, To'rtko'z, Oltiariqsoy

**Namuna:** Oltiariq: qo'shma ot, son+ot ko'rinishida. Oltiariq - Farg'ona viloyatidagi tuman, Namangan viloyati, Rishton, Buvayda tumanlari bilan chegaradosh.

**VII topshiriq.** Miqdor sonlar (sanoq son, dona son, jamlovchi son...) ning grammatik tabiati haqida ma'lumot bering.

Masalan: Sanoq son - maxsus shaklga ega emas: bir, besh, o'n, qirq. Sanoq son egallik, kelishik shakllari bilan erkin birikadi: Birni kessang, o'nni ek. (Maqol) Sanoq son boshqa so'z turkumlari yasallishida yasallish asosi bo'la oladi: birlik, uchlik, ikkichi va h.k.

*Dona son - ...*

**VIII topshiriq.** Lug'atlardan foydalanib quyidagi eskirgan o'lchov so'zlar ma'nosini izohlashga harakat qiling.

Misqol, paysa, tanob, dirham, dinor, dahsar, botmon, pud, qadoq, tosh, chaqirim, qarich, tanob, arshin, xarvar, fund, farsax.

Masalan: *paysa*– 50 gramga yaqin og'irlik o'lchov birligi, pud – 16 kg. botmon – 20 kg. misqol – 4,1-4,4 gr. qadoq – 400 gr. gaz – 70-90 sm. tosh – 7-8 km. chaqirim – 1,5 km. qarich – 20 sm.

**IX topshiriq.** Turli davlatlarga tegishli pul birliklarini bildiruvchi o'lchov so'zlar lug'atini tuzing.

Masalan: *Dollar* – AQSH hamda Avstraliya, Kanada, Malayziya, Singapur kabi 30 ga yaqin katta-kichik davlatlarning pul birligi. *Marka* – Germaniya, Finlandiyaning pul birligi. *Lira*– Turkiya, Italiya, Malta davlatlarining pul birligi.

**X topshiriq.** Juft, takror, qo'shma sonlar ishtirok etgan gaplar yozing. Ularning imlosini tushuntiring.

**XI topshiriq.** Bir sonining polisemiyasi haqida nimalar bilasiz. Bilganlaringizni aytib bering.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tarixiy sonlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Ota-bobolarimiz miqdorni ifoda etish uchun qanday usullardan foydalangan?
3. Sonning lug'aviy-grammatik xususiyatlarini izohlang
4. Son tuzilishi haqidagi bilimlaringizni so'zlab bering
5. O'lchov (hisob) so'zlar haqida gapiring.
6. Miqdor ma'nosini sondan tashqari yana qaysi so'z turkumlari ifodalay oladi?

### **ADABIYOTLAR:**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
4. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.
5. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари

учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.

6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

## 6-MAVZU: RAVISH SO'Z TURKUMI

### Reja:

1. Ravish va uning o'rganilish tarixi
2. Ravish o'zgarmas mustaqil so'z turkumi sifatida
3. Ravishning lug'aviy-grammatik xususiyati
4. Ravish yasalishi
5. Ravishning boshqa so'z turkumlari bilan aloqasi

***Tayanch so'z va iboralar:*** *ravish so'z turkumi tarixi, o'zgarmas so'z, ravishning lug'aviy-grammatik xususiyatlari, ravish derivatsiyasi.*

Ravishlar mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlardir. Ular belgini, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi va bu jihatdan ot, sifat, sonlarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli tomoni shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar bilan birika olmaydi, otlarlar ko'plik qo'shimchasi bilan, sifatlarning *-roq* daraja qo'shimchasi bilan erkin birika oladi. Chunonchi: *tongda, oqshomda, kunduzlari, ko'proq, ozroq, balandroq*. Ayrim til birliklarida uchraydigan egalik, kelishik shakllari ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni yaxlitlanib qolgan: *birdan, zumdand, to'satdan* va boshqalar.

Ravishlarning holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, sabab-maqсад kabi ma'noviy guruhlari bor.

1. Holat ravishlari ish-harakatning bajarilish holatini bildiradi. Tarz ravishlari deb ham yuritiladi. Masalan: *bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitchasiga, o'zbekona, ablahlarcha, aybdorlarcha, ayyorona, akalarcha, aksincha, aksicha, alohida-alohida, asta, asta-asta, asta-sekin, astoydil, aqlan, ag'dar-to'ntar, bajonidil, bazur, bazo'r, yonlab, yonlamasiga, yonma-yon, yoshlay, yoshlarcha, jabran, javoban, jadal, jangovorona, jasurona, jim, jinnichasiga, jisman, jovli(k), johilona, jufay, zaruratan, zimdan, zir, ziq, zoye, zolimona, zotan, zohidlarcha, zohidona, zohiran, zo'r-bazo'r, zo'rma*

-zo'raki, iblisona, izma-iz kabi.

2. Payt ravishlari ish-harakatning vaqtini, muddatini bildiradi. Masalan: *ba'zan-ba'zan, ba'zi vaqt, bir vaqtlari, bir gal, birda, birdamas-birda, bir zamon(da), bir zamonlar, bir zum(da), boshda, boshdan, boya, buguncha, bugun-erta, bultur, bu orada, burundan, vaqt-bevaqt, vaqt-vaqt, vaqtincha, gohida, goho, darrov, darhol, dastavval, dastlab, doim, yozin-qishin, zahoti, zinhor, zinhor-bazinhor, ilalabad, ilgarilari, ilgarisi, indin(ga), yilda, yiliga, keyin-keyin, keyincha(lik), kecha, kecha-kunduz, kunda, kunduz(i), mangu, mudom, muttasil, nuqul, oyda-yilda, onda-sonda, ora-sira, oqshomlari, satta, saharda, saharlab, so'ng, so'ngra, tez kunda, tez orada, tonglab, turib-turib, endi, saharlab, hali, doim, boya, indin va sh. k.*

3. O'rin ravishlari ish-harakatining yuzaga chiqish o'rnini ifodalaydi. Bu qatorga *olg'a, uzra, bunda, nari-beri, oldinga, oldinda, oldindan, orqavorotdan, ro'paradan, tubanda, to'g'riga, to'g'rida, to'g'ridan, unda-bunda,, yaqinda, yaqindan, o'rtaga, o'rtada, o'rtadan* va h.k. kabilarni sanash mumkin.

4. Miqdor -daraja ravishlari miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi. Masalan: *avvalgicha, ancha, ancha-muncha, bir necha, bir oz, bir talay, bir qancha, botmonlab, gala-gala, gektarlab, gramlab, guras-guras, deyarli, donalab, dunyolarcha, yetarlicha, yoppasiga, jinday, zarracha, zig'irday, zig'irchalik, zud, zo'rg'a-zo'rg'a, ilas-ilas, ilgaricha, irimiga, istagancha, yildan-yil(ga), yillab, yillarcha, kamdan-kam, kamida, kam-kam, keragicha, kilolab, kilometrlab, kosalab, kublab, kundan-kun(ga), kunma-kun, ko'pdan-ko'p, ko'pgina, ko'plab, tezda, tezlikda, tiyinlab, tirnoqcha, tobora, tonnalab, tugal, uzundan-uzoq, umuman, ustiga-ustak, ust-ustiga, xiyol, hiyla, chakanalab, chaman-chaman, o'lib-tirilib, o'rtacha, qadimgicha, qayta-qayta(dan), qanorlab, qancha-qancha, qisman, qismlab, qittak, qisqacha, qo'sha-qo'sha, hadeb, haftalab, hovuch-hovuch va h.k.*

5. Sabab-maqsad ravishlari sirasiga manbalarda *noilojlikdan, nochorlikdan, chorasizlikdan, kuyganidan, uyalganidan, qo'rqqanida; atay, atayin, ataylab, qasddan, jo'rttaga, azza-bazza* kabilar mansubdir. Sabab va maqsad ma'nosi ravishdan boshqa turkumdagi so'zlar bilan ham ifodalanadi. Bu ma'noni jo'nalish kelishigidagi so'z: *o'qishga keldi; -gani* ravishdosh affiksini olgan so'z: *o'qigani keldi; uchun* ko'makchisi bilan birikkan so'z (masalan, *O'qish uchun keldi*) yoki *maqsadida* so'zi ham ifodalay oladi.

**19-mashq.** Berilgan so'zlarga ko'plik(-lar), qiyosiy daraja (-roq), egalik (-m,-im, -ng, -ing, -i,-si...), kelishik (-ning,-ni,-ga,-da,-dan) qo'shimchalari qo'shiladigan so'zlarni (o'zgaruvchi so'zlarni) alohida, bu qo'shimchalar bilan birikmaydigan so'zlarni (o'zgarmas so'zlarni) alohida qilib yozing.

Mutlaqo, erta, sira, yayov, hozir, butkul, avvalo, bugun, bahor, bu yer, oqshom, ba'zan, ko'p, qiyg'os, oldin, tasodifan, astoydil, mardona, dadil,

ertalab, ost, bugun, yuqori, kecha, har kun, misqollab, arang, bazo'r.

**Namuna:** O'zgaruvchi so'zlar:

erta (-ga,-dan -roq)

O'zgarmas so'zlar:

endi

I-topshiriq. O'zgaruvchi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**20-mashq.** Berilgan so'z juftliklaridan o'zgaruvchi so'zlarni alohida, o'zgarmas so'zlarni alohida ajratib, jadvalni to'ldiring.

oldin-olg'a, kecha-hali, hamisha- hozir, dadil-mardona, oqilona-aqli, tez-darrov, oz-sal, ba'zan-har kun, ko'p-talay, boya-ertalab, ko'plab-oz.

1-jadval

o'zgaruvchi so'zlar	o'zgarmas so'zlar
oldin (-da,-dan)	olg'a

**21-mashq. 1-amal.** Berilgan so'zlarni so'roqlariga mos ravishda jadvalga joylashtiring.

Astoydil, minglab, talay, zimdan, ancha, qo'qqisdan, ayyorona, halizamon, yaxshi, qilcha, bafurja, yomon, sharqona, nodon, boya, avval, atrof, olg'a, jadal, vijdonan, tashqari, noiloj, jo'rttaga, yugurgancha, picha.

2-jadval

qanday?	qancha?	qachon?	qayer?
-astoydil +yaxshi ...	+ko'p -talay ...	+ bugun - endi ...	-olg'a +ichkari ...

**2-amal.** O'zgaruvchi so'zlar oldiga (+), o'zgarmas so'zlar oldiga (-) belgisini qo'ying.

**3-amal.** O'zgarmas so'zlar qatorini davom ettiring.

**4- amal.** O'zingiz topgan o'zgarmas so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**5- amal.** 1-2-3- amallar natijasi asosida o'zgarmas so'zlarga ta'rif yarating.

**22- mashq. 1- amal.** Berilgan so'zlarni o'qing, so'zlarning ma'nosi va imlosiga e'tibor bering.

Namozshom, olg'a, erta, endi, tegra, orqavorotdan, o'ng, kecha, oz, picha, jinday, hali, xiyol, tong, hanuz, old, ost, mo'l, xiyla, halizamon, butun, har kun, qishin- yozin, tashqari, tun-u kun, har yer, qilcha, har vaqt, soatlab, so'ngra, to'la, azonlab, har joy, muttasil, juda, tobora, erta-indin, serob.

**2- amal.** Egalik, kelishik qo'shimchalari bilan birikadigan o'rin otlarini alohida, bu qo'shimchalar bilan birikmaydigan o'rin ravishlarini alohida

yozing.

**3- amal.** Egalik, kelishik qo`shimchalari bilan birikadigan **payt otlarini** alohida, bu qo`shimchalar bilan birikmaydigan **payt ravishlarini** alohida yozing.

**4- amal.** -roq daraja qo`shimchasi bilan birikadigan miqdor sifatlarini alohida, bu qo`shimcha bilan birikmaydigan daraja-miqdor ravishlarini alohida yozing.

3- jadval

O`RIN qayer?		PAYT qachon?		MIQDOR qancha?	
OT	RAVISH	OT	RAVISH	SIFAT	RAVISH
ilchkari, ko`cha ....	olg`a, nari, beri ....	tush, kech ....	hali, nuqul ...	ko`p, oz ....	Pisha, andak ....

**Bilib oling.** Egalik, kelishik, ko`plik, qiyosiy daraja qo`shimchalari bilan birikmaydigan mustaqil ma`noli o`zgarmas so`zlar ravishlardir. Ravishlar ot, sifat va sonlardek belgi, payt, o`rin, miqdor, holat kabi ma`nolarni ifodalaydi, lekin morfologik jihatdan o`zgarmaydi (turlanmaydi). Ravish gapda hol, sifatlovchi ainiqlovchi, kesim bo`lib kelad.

**23-mashq. 1- amal.** Berilgan ravishlarni tub va yasamaligiga ko`ra ikki ustunga joylashtiring. Yasama so`z haqida ma`lumot bering.

Baralla, g`olibona, taxminan, butkul, oylab, jadal, do`stona, dehqonchasiga, hamisha, lutfan, boya, andak, vijdonan, odilona, chappasiga, ulgurjisiga, haftalab.

**2- amal.** Yasama so`zlarning asos va qo`shimchalarini aniqlang.

**3- amal.** Bu so`zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**24-mashq. 1- amal.** Quyidagi so`zlarga *-lab, -ona, -an, -larcha, -chasiga* kabi qo`shimchalarning mosini qo`yib ko`chiring.

Mard..., o`rtoq..., telba..., mohir..., yangi..., yigit..., ota..., majbur..., kamtar..., yil..., ming..., darvesh..., fidokor..., odil..., Farg`ona..., qardosh.

**2- amal.** Qo`shimchalar orasidagi ma`nodoshlikni tushuntiring.

**3- amal.** Yasama ravishlar qaysi so`z turkumidan yasalganligini aniqlang.

**II topshiriq.** Yasama ravishlar qatorini davom ettiring.

-ona: sharqona...  
-an: lutfan...  
-larcha: do`stlarcha...  
-lab: tonnalab...

**Bilib oling.** -ona, -larcha, -chasiga, qo`shimchalari ot, sifatlarga qo`shilib ravish yasaydi.

**III topshiriq.** Berilgan so`zlarni -chasiga qo`shimchali yasama ravishlarni alohida, -cha+si+ga qo`shimchali otlarni alohida qilib yozing va xulosa chiqaring.

Harbiychasiga, kitobchasiga, ochiqchasiga, toshkentchasiga, daftarchasiga, sumkachasiga, mardchasiga.

**25-mashq.** Gaplarni o`qing. Ravishlarni topib, tub yoki yasama ekanligini aniqlang. Gapdagi ravisharga ma`nodoshlar topib ko`chiring.

1. Nodirbek bilan do`stlarcha xayrlashdik. 2. Bemorning sog`ligi xiyla yaxshilandi. 3. Nizomjonga uning dabdurustdan aytgan bu gapi malol keldi (S.Ahmad). 4. Mardlarcha kurashmoq mardlarning ishi (S.Ahmad). 5. Chang va tutun ichida mashina va odamlar arang ko`rinar edi (A.Qahhor). 6. Zirrilama guzaridan sal nari o`tib, chap tarafga tor ko`cha ketadi (S.Ahmad).

**Namuna:** Nizomjonga uning dabdurustdan (to`satdan, qo`qqisdan, bexosdan, tasodifan...) aytgan bu gapi malol keldi.

**Bilib oling.** Ayrim ravishlar tarkibida -ga, -dan kelishik qo`shimchalari, -lari ko`plik, hamda III shaxs egalik qo`shimchasi birgalikda so`zning asos qismida yaxlitlanib, "qotib" qolgan. Bu kabi so`zlar asos va qo`shimchalarga ajralmaydi: *tubdan, birga* kabi.

Bundan tashqari *so`ngra, birin-ketin, ostin-ustin, zo`rg`a, bazo`r, yoppasiga* kabi so`zlar ham tub ravishlardir.

**26-mashq.** Gaplarni o`qing. Ajratilgan takror va juft ravishlarning ma`nosi va yasalish usulini aniqlang.

1. Xijolatdan yuzim **gul- gul** yonar (Oybek). 2. Tegirmonga **qop-qop** un keltirildi. 3. Dehqon kuzda **tog`-tog`** paxta yetishtiradi. 4. Oldinda **quduqma- quduq** yo`l boshlovchi karvon yo`llarini yod biladigan keksalar borardi. 5. Zulfiya **bitta-bitta** yurib uyi tomon ketdi.

**27-mashq.** Quyidagi so`zlar ishtirokida gaplar tuzing. Bu so`zlarning ma`nolarini izohlang.

O`qtin-o`qtin, yuzma-yuz, o`lda-jo`lda, ko`r-ko`rona, arzon-garov, vaqt-bevaqt, kamdan-kam, qishin-yozin, eshikma-eshik.

**Bilib oling.** Ayrim ot, son, fe'llarni takrorlash bilan ham yangi ravishlar yasash mumkin. Bular doim chiziqcha (-) bilan yoziladi.

**28-mashq. 1-topshiriq.** Berigan ravishlarni 1) holat ravishlari, 2) darajamiqdor ravishlari, 3) payt ravishlari shaklida uch guruhga ajratib yozing. Qatorni mustaqil davom ettiring.

Bexosdan, atigi, avvalo, azaldan, batafsil, astoydil, tubdan, shaxdam, minutlab, picha, mardlarcha, alpomishlarcha, taxminan, halitdan, muttasil, nuqul, juda, burro-burro, safma-saf, vaqtincha, uch kunlab, hali-beri, onda-sonda, loaqal.

**29-mashq.** O`ng tomondagi ravishlardan chap tomondagi ravishlarning ma'nodoshlarini topib, ma'nodoshlar qatorini tuzing.

Doim  
zo`rg`a  
andak  
g`olibona  
ba`zan  
ancha  
atayin  
birdan

tasodifan, jo`rttaga, ancha, goh-goh,  
mardlarcha, xiyol, bazo`r, qilcha, hamisha  
uzzukun, jinday, qahramonona, gohida,  
xiyla, qasddan, ataylab, bexosdan,  
to`satdan, nuqul, sal-pal, birdan,  
ahyon-ahyonda, arang, mudom, hamon,  
qo`qqisdan.

**IV topshiriq.** Badiiy asarlardan ravishlar qatnashgan gaplarni topib, daftaringizga ko`chiring. So`ng namunada berilgandek tahlil qiling.

**Namuna:** Bu hazillar, kulgular zumda tandan charchoqni qochiradi.(S.Ahmad)

**zumda**- ravish, tub ravish, payt ravishi; gapda hol bo`lib kelyapti; ma'nodoshi- tezda, bir pasda; zid ma'nosi- arang, bazo`r.

**30- mashq.** Quyidagi raqamlarga mos ravishda, alifbo tartibida harflar qo`yib, ravishlar hosil qiling.

9	1	3	1	11
---	---	---	---	----

	1	10	18	1	17
11	20	19	5	1	13

2	1	12	1	18	11	1	7	1	19
---	---	----	---	----	----	---	---	---	----



**V topshiriq.** "Tasodifan uchrashuv", "Kutilmagan mehmon", "Ona tabiat" mavzularining birida ravishlar qatnashgan matn yozing.

**31- mashq.** Avval daraja-miqdor ravishlari, keyin payt ravishlari qatnashgan gaplarni o`qing.

1. Saragul yolg`iz qishin-yozin, kecha-yu kunduz tinim bilmasdi. (A.Muxtor)
2. Bemorning sog`ligi xiyla yaxshilandi.
3. Anhor qirg`og`i g`ira-shira yorug`. (S.Ahmad)
4. Goho xayol daryosida jim  
O`tkazaman tunlarni bedor  
Ba`zan g`aliz jumla ustida  
Soatlab bosh qotirganim bor.(A.Oripov)
5. Ikromjon undan ancha uzoqda edi. (S.Ahmad)
6. Yozgi ta`til tobora yaqinlashmoqda.
7. Azizxon hali giyoh o`smagan qabrni quchib, o`kirib-o`kirib yig`lamoqda. (S.Ahmad)
8. Anoraxon o`tilgan mavzuni batafsil so`zlab berdi.

**VI topshiriq.** Berilgan tayanch so`zlarga mos so`zlar qo`yib, gapni mazmunan to`ldiring. Ravishlarni aniqlang.

- 1)...fidokorona mehnat qilmoqda
- 2)...haftalab kutdik.
- 3)...dona-dona so`zladi.
- 4)...birdaniga so`zladi.
- 5)...bafurja gaplashamiz.
- 6)...darrov payqab,...
- 7)...naridan- beri ovqatlandi-da...
- 8)...takror-takror o`qib,...

**Namuna:** Bugungi yoshlar hayotning har jabhasida **fidokorona mehnat qilmoqdalar.**

**VII topshiriq.** "Zukkolar o`yini"ni tashkil eting. Bunda bir guruh, boshqa guruhlariga bittadan fe'l aytadi. Guruh o`quvchilari shu fe'l ishtirokida ravish qatnashgan gap aytishadi.

Namuna: Keldi. Karimjon *tez* keldi.

**32-mashq.** Quyida berilgan sinonimik qatordagi so`zlar qaysi xususiyatiga ko`ra farqlanadi? Mazkur so`zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ko`p, xiyla, ancha, bir talay, bir gala;

Kam, oz, andak, picha, xiyol, zarracha, tirnoqcha.

**33-mashq.** Payt va o`rin ma`noli ravishlar qatnashgan gaplar tuzing. Ravishlarning matndagi uslubiy imkoniyatlarini izohlang.

**Namuna:** Buguning kechani mevasi, ertaning ildizi. (Maqol)  
Orqavorotdan uni [Yormatni] masxaralashar, hatto so`kishar edi. (Oybek)

**34-mashq.** Misollardagi ravishlarni izohlang. Ma`nodoshlari bilan almashtirib o`qing. Ma`no farqlari haqida bahs yuriting.

1. Shundaylar bo`lmasa, **azaldan** tuproq,  
Yashnardi tag`in ham go`zal va mumtoz. (A.Oripov)
2. Dovruq tindi ohista, sekin,  
So`zlardagi yolqin, alanga,  
Lablardagi otash, harorat,  
Bo`lar edim g`amxo`r, mehribon.  
Men seniki **abad, umrbod**. (A.S.Pushkin)
3. **Tag`in** boshimizga balolarni yog`dirmang. (R.Bekniyozov)
4. **Boshda** Hasanali Ziyo shohichi bilan uning o`g`li Rahmatdan yaxshigina umid kutgan edi. (A.Qodiriy)
5. Norqo`zi bilan **yigitchasiga** bir gaplashsin. (H.G`ulom)

**VIII topshiriq.** O`rin va payt ma`noli ravishlar qatnashgan maqollardan namunalar keltiring.

**Masalan:** Erta ekkan- erta o`rar.

**35-mashq.** Iste`dodli shoir A.Oripov ijodiga mansub quyidagi she`riy parchalarni o`qing, holat ravishlariga izoh bering.

6. Meni savollarga ko`mar **da`fatan**  
Xazonning taqdiri, so`nggi shovqini  
("Kuz xayollari")
7. **Nogahon** falakka urgan kabi do`q,  
So`zsiz qotib turar bo`ychan teraklar.  
("Saraton")
3. Novdalari **birdan** qotganday,  
Ko`rinadi sukutda tolzor.  
("Manzura")

**36-mashq.** Miqdor ma`noli quyidagi ravishlarni izohlang. Bunda lug`atlardan foydalaning.

Arang, asrlarga, atigi, batafsil, baqadrihol, botmonlab, butkul, dunyolarcha, yoppasiga, jinday, zarracha, zig`irday, irimiga, ko`tarasiga, misqollab, ozmuncha, talay, tugal, xiyol, xiyla, qattiq, qo`sha- qo`sha, va

h.k.

**IX topshiriq.** Picha, sal, andak, zarracha, ko`p, bir qancha, jindak, oz, bir talay, zig`ircha kabi miqdor ma`noli so`zlarni ma`no darajasiga ko`ra ketma - ket joylashtiring.

**37-mashq.** Donolar bisotidan olingan mazkur ibratlarni o`qing. Undagi ravishlarni topib izohlang.

8. Baxtsizlikdan qutilish uchun taqdir har doim darcha qoldiradi. (M.Servantes)
9. Nomusli kishigina astoydil qayg`u chekadi.(F.Gebbel)
10. Donolor fikr aytishdan oldin o`ylab ko`radilar, tentaklar shartta gapirib yuboraveradilar.(G.Geyne)
11. Donolik behaddir, bu yo`lda qancha ilgari laganing sari u tobora zarurlashib boraveradi.(L.N.Tolstoy)
12. Hech qachon hamma narsani bildim, endi o`rganishga o`rin qolmadi, deya hisoblama. (N.D.Zelinskiy)
13. O`z ojizligini tan olish bilan inson yanada baquvvatlashadi. (O.Balzak)

**X topshiriq.** "Inson va tabiat" mavzusida matn tuzing. Matnda ravishlardan unumli foydalaning.

**XI topshiriq.** Arzon- garov, ag`dar- to`ntar, bugun-erta, kecha- kunduz, erta-kech kabi juft ravishlar ishtirok etgan qo`shma gaplar tuzing.

**XII topshiriq.** Holat, payt, miqdor ma`noli qo`shma ravishlar qatnashgan badiiy asarlardan misollar toping.

**Masalan:** Bir zumda dasturxon almashtirildi.(T.Malik) Avval qiladigan ishlarimni qilib olay, keyin birato`la yuvinib, ovqat yeyman, - dedi To`la onasiga. (M.Ismoilij)

**XIII topshiriq.** Ertak yozing, unda Holat, Payt, O`rin, Miqdor, Maqsad, Sabab kabi qahramonlar ishtirok etsin. Har biri o`z guruhiga oid so`zlardan nutqida foydalansin.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Ravishlarning boshqa turkum so`zlaridan o`ziga xos jihatlari qanday?
2. Ravishning qanday ma`no turlari bor?
3. Yasama ravishlar haqida ma`lumot bering.
4. Ravishlarning morfologik xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ravish so`zlarning sintaktik xususiyati haqida nimalarni bilasiz?

## ADABIYOTLAR :

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. – Тошкент: Муҳаррир, 2010.
4. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
5. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

### 7-MAVZU: Taqlid so'z turkumi

#### Reja:

1. Taqlid va uning o'rganilish tarixi
2. Taqlid mustaqil so'z turkumi sifatida
3. Taqlidning lug'aviy- grammatik xususiyatlari

*Tayanch so'z va iboralar. taqlid so'z, taqlidlarning tuzulish turlari, taqlid mustaqil so'z turkumi sifatida, holatga taqlid so'z, tovushga taqlid so'z.*

O'zbek tilida taqlid so'zlar bosh son jihatdan salmoqli o'ringa ega. Ular o'zbek tili grammatikasida mustaqil so'zlar sirasiga kiritilgan.

Taqlidlarning bir turi tovushga taqlidni ko'rsatsa, ikkinchi bir guruhi harakat-holatni ifodalaydi.

I. Tovushga taqlid so'zlar. Bular shaxs, jonivor, narsa va hodisalarning tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. Bularni o'z navbatida yana quyidagicha guruhlash mumkin: a) shaxsning harakatidan paydo bo'lgan tovushga taqlidlar: *qult-qult, qah-qah, xur-xur...* b) hayvon va jonivorlar tovushiga taqlidlar: *g'uv-g'uv, miyov-miyov, b) narsa hodisalar*

tovushiga taqlidlar: *g'ir-g'ir, shiq-shiq, shivir-shivir* va h.k.

**II. Holatga taqlid so'zlar.** Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan bog'liq hodisalarni ifodalasa, holatga taqlidlar ko'rish bilan bog'liq hodisalarni ifodalaydi: *dik-dik, lip-lip, lapang-lapang, ship-ship, lop, hil-hil, jiq-jiq, jivir-jivir, yalt-yult, yilt-yilt* va h.k.

Taqlidlar tuzilishiga ko'ra sodda (lov, shig', yalt, yarq, paq, shir), juft (shov-shuv, qiy-chuv, g'ing-ping), takroriy (miyov-miyov, taq-taq, dag'-dag') shakllarda bo'ladi.

Taqlidlar morfologik jihatdan o'zgaradi. Masalan: *Bolalarning qiy-chuvi eshitildi.*

Taqlidlar sintaksisda turli gap bo'lagi vazifasida kela oladi.

**I topshiriq.** Taqlid so'zlarning yuzaga kelishi haqida nimalarni bilasiz ? Shu haqida mulohaza yuritib, fikrlaringizni bayon eting.

**38-mashq.** Taqlid so'zlarni belgilab, holatga taqlid, tovushga taqlidni ifoda etuvchilarni izohlang.

1.To'rtta savag'ich bilan taq-taq urib, par singari qilib titibdi.(Oydin)  
2.Yo'lning ufqida bir nima yilt etdi, so'ngra bir necha qora nuqta ko'rindi. (A.Qahhor)  
3.Cho'g' uchquni milt etdi. 4.Momiqday qo'l uning kaftiga tushganda allaqayeri jaz etib, entikkanday bo'ldi. (R.Fayziy)  
5.Hayot ichidan otilib chiqqan xo'rlikka chiday olmay, yig'idan mo'lt-mo'lt to'kilayotgan ko'z yoshlaridan o'zini tiyolmay fig'on qildi.(M.Ismoiliy)  
6.Bashorat "esiz odamgarchilik" degandek eriga bir o'qrayib qaradi-yu, tars-turs yurib, hovlidan chiqib ketdi. (S.Axmad)  
7. Hasan akaning chakkasiga ham bir nima "tars" etib tegdi. (A.Muxiddinov)  
8. Qish bo'yi allaqaysi go'r ostilarida junjub chiqqan qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to'rg'aylar sa'valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o'z to'plari bilan vijir-vijir, chug'ur-chug'ur sayrab kuylaydi. (A.Qodiriy)

**39-mashq.** Taqlid so'zlar tarkibidagi munosabat shakllarini aniqlang.

1. Jiz-bizga nihoyatda usta ko'rinasiz. (Uyg'un)  
2. Bir kuni nima bo'ldi-yu, jiz-biz ma'mur bo'lib ketdi. (Ikromov)  
3. Ro'paradagi uyning tomidan "tarr" etgan tovush eshitildi.(A.Qahhor)  
4. Atrofdagi ovozga gala-gala

chug'urchuqlarning vijir-vijiri qo'shiladi. (H.Nazir) 5.Uh, tunda tog'larning sovuq jarangi, Tindi kamon o'qin mash'um viz-vizi. (O.Hakimov)

**II topshiriq.** Yasalish asosi taqlid so'z bo'lgan yasalmalarni toping, izohlang.

1. Qiz borar ishiga, unga yonma-yon Atlaspo'sh qaldirg'och vijirlab uchar. (H. Rasul) 2. Ko'p vaqillayverma! Ko'rib yurubsanku, bola esini tanib olsin-chi. (B. Rahmonov) 3. Bobur yarador oyog'ining jizillab kuyib og'rigani va Ahmad Tanbalning qo'lidagi qilich allanechuk tanish ekanini bir vaqtda his qildi. (P. Qodirov) 4. Olimjon hang-u mang bo'lib qoldi: Raisning bu qadar jizzaki va ginachiligini endi ko'rib turgan edi. (H.Nodir) 5. Gapirsak, quloq solmaydi, jizzakilik qiladi. (S.Ahmad) 6. Quyosh tik kelgan. Havo lovullab yonadi. (Oybek) 7. Unda-bunda yulduzlar xira miltirar, sovuq achchiqqina. (Oybek)

**Masalan:** *Miltiramoq* - yasalish asosi taqlid so'z, holatga taqlid so'z, yasovchi vosita *-ira* (fe'l yasovchi affiks), yasalma holat fe'li (tabiiy holat fe'li).

**40-mashq.** Murakkab taqlid so'zlarni leksik-grammatik jihatdan tahlil qiling.

1. Bilq-bilq issiq tuproqqa botib bormoqdamiz. (Oybek) 2. Dam olishga komanda berilgach, yuzdan ortiq jangchi besh-o'n minut dupur-dupur qilib, yuvinib, chekib oldi. (H. Olimjon) 3. Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan tunqotar... tars-turs ko'chaga chiqdi (A. Qodiriy) 4. Tarnovdan tushayotgan yomg'ir suvi shamolda deraza oynalariga chars-churs urilyapti (R. Azizxo'jayev) 5. Labini chalp-chalp qilib yalab qo'ydi Mulla Mamasolih. (N. Maqsudiy) 6. Sahnadagi Gulsaraning qayg'u alamlari eskilikning dahshatli kuchi oldida zir-zir titrab turadigan ayolning qayg'u kulfatlari edi. (H. Nosirov)

**III-topshiriq.** O'qiyotgan badiiy asarlaringizdan taqlid so'zlar qatnashgan misollar yozing.

**Masalan:** A.Muxtorning "Opa-singillar" asaridan. Bu gapdan Nusratillaning tani jiz etib ketdi, Turdimat cho'talni yeb tashlaguday qarab, ko'nglidagini bildirib qo'ydi.

**IV topshiriq.** Sinonimik va graduonimik taqlid so'zlarga misollar yozing.

**Namuna:** *tiq-tiq, taq-taq, to'q-to'q*- ma'noviy darajalanuvchi taqlid so'zlar; *yalt-yult, yal-yal* - sinonimik qator.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Turkiy (o'zbek) tillarida taqlid so'zlarining mavqeyi haqida gapiring.
2. Holat, tovushga taqlid so'zlar haqida so'zlang.
3. An'anaviy darsliklardan farqli tarzda taqlid so'zlarning mustaqil so'z turkumi sifatida izohlanishiga asosiy sabablar nimalardan iborat.
4. Taqlid so'zlar tuzulishi haqida gapiring.
5. Taqlid so'zlarning boshqa so'z turkumlari bilan munosabati haqida nimalarni bilasiz.

### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарқ, 2001.
6. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
7. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

### **8-MAVZU: OLMOSH SO'Z TURKUMI**

## Reja:

1. Olmosh va uning o'rganilish tarixi.
2. Olmoshning ishoraviy tabiati.
3. Olmoshning matndagi o'rne.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *olmosh, ishoraviy soʻz, kishilik, koʻrsatish, oʻzlik, belgilash, boʻlishsizlik, gumon olmoshlari, olmoshning grammatik tabiati, olmoshning sintaktik vazifasi.*

Olmoshlar shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatga ishora qilib keladi. Olmosh bildiruvchi maʼno nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular otlar kabi kelishik, egalik, koʻplik qoʻshimchalarini qabul qilib, morfologik jihatdan oʻzgaradi va gapda turli gap boʻlaklari boʻlib keladi.

Olmosh qaysi soʻz turkumi oʻrnida qoʻllansa, shu turkum bajargan sintaktik vazifani bajaradi.

Olmoshlar gapdagi ifodasiga koʻra quyidagi maʼno guruhlariga boʻlinadi:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Koʻrsatish olmoshlari.
3. Oʻzlik olmoshlari.
4. Belgilash olmoshlari.
5. Soʻroq olmoshlari.
6. Gumon olmoshlari.
7. Boʻlishsizlik olmoshlari.

I. Kishilik olmoshlari shaxsga ishora qilib keladi. *Men, sen, u, biz, siz, ular* kishilik olmoshlari sanaladi.

II. Koʻrsatish (*bu, shu, mana, ana, u, oʻsha, mana oʻsha ana oʻsha* va boshqalar) shaxs, predmet, belgini alohida koʻrsatish, taʼkid maʼnolari uchun xizmat qiladi.

III. Oʻzlik olmoshi. Kishilik olmoshlari oʻrnida qoʻllanuvchi oʻz soʻziga oʻzlik olmoshi deyiladi.

IV. Soʻroq olmoshlari shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagilarga boʻlinadi:

-shaxsga nisbatan qoʻllanuvchi olmoshlar (*kim, kimlar*);

-voqea-hodisa, predmetlarga nisbatan qoʻllanuvchi olmoshlar (*nima, nimalar*);

-belgini aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*qanday, qanaqa*);

-sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*nega, nima uchun, nechuk*);



- miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmoshlar (*necha, qancha*);
- harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima qildi, nima bo'ldi*);
- o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qani, qayerda*);
- payt ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qachon, qachonga*).

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nolarini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish (*kimki, nimaki*); ritorik so'roq ma'nolarini (*Men sizga nima dedim?*); taajjub ma'nosini (*Buning nimasi yomon?!*) ifoda etadi.

V. Belgilash-jamlash olmoshlari. [*har+so'roq olmoshi*] qolipi hosilalari hisoblanadi: *har kim, har qachon, har qancha* va b. Shuningdek, *hamma, barcha, yalpi, butun, bari* kabi so'zlar ham shu guruhga kiradi.

VI. Gumon olmoshlari gumon ma'nodagi narsa-hodisa, shaxs, belgi-xususiyatni ifodalab keladi. So'roq olmoshlariga *alla-* va *-dir* kabi shakllarni qo'shish bilan hosil bo'ladi.

VII. Bo'lishsizlik olmoshlari qarnashgan gap inkor mazmunli (bo'lishsiz) bo'ladi. So'roq olmoshi oldidan "hech" so'zini keltirish bilan hosil bo'ladi.

Olmoshlar nutqimizni o'rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasidir. Ular gapda turli sintaktik vazifalarda kela oladi.

**I topshiriq.** Olmosh haqidagi bilimlaringizni sinab ko'ring

1. Olmoshning ma'no ifodasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Olmoshning ishoraviy xususiyatini tushuntiring.
3. Olmoshning morfologik tabiati haqida nimalarni bilasiz?
4. Olmoshning sintaktik tabiati haqida gapiring.

**II topshiriq.** A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidan olingan quyidagi parchani o'qing, olmoshlarning matndagi ifodasi haqida gapiring.

Qobil bobo ro`para bo`lganda amin og`zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag`baqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir, yo`qoldimi?
- Yo`q... sigir emas, ho`kiz, ola ho`kiz edi.
- Ho`kizmi?... Ho`kiz ekanda! Hmm... Ola ho`kiz? Tavba!...
- Bor-yo`g`im shu bitta ho`kiz edi..

Amin chinchalog`ini ikkinchi bo`g`inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo`qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho`kiz edi?

- Ola ho`kiz
  - Yaxshi ho`kizmidi yo yomon ho`kizmidi?
  - Qo`sh mahali...
  - Yaxshi ho`kiz birov yetaklasa keta beradimi?
  - Bisotimda hech narsa yo`q...
- O`zi qaytib kelmasmikin?... birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo`yilmagan ekan-da! Nega yig`lanadi? A? Yig`lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qotdi.

**III topshiriq.** Berilgan misollarda olmoshning so`z, so`z birikmasi, gapga ishora qilganligini alohida-alohida izohlang.

1. Yarim tunda kimnidir uzoqdan hayqirgani eshitildi - Buni butun qishloq eshitdi (Gazetadan). 2. Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabul xonasiga kichkina telefonogramma tushibdi. (Murod Muhammad Do`st) 3. Shahrimizda hashamatli binolar qad kotaryapti - Bular shahrimiz ko`rkiga ko`rk qo`shyapti (Gazetadan) 4. Albert Eynshteyn 1896-yilda Syurix texnologiya institutida o`qishga kirdi. U shunday qobilyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsasini hech o`zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi. ("Nobel mukofoti sohiblari" kitobidan).

**IV topshiriq.** Mustaqil holda yuqoridagi kabi gaplar tuzing. Unda olmosh so`z, so`z birikmasi gapga ishora qilgan bo`sin.

**41-mashq.** E.Vohidovning "Barcha shodlik senga bo`lsin" she`rini topib, unda qo`llangan olmoshlarning matndagi ifodasini aniqlang. O`zaro zidlangan so`zlarning ma`nosini izohlang. Bunda "O`zbek tilining izohli lug`ati"dan foydalaning.

**V topshiriq.** *Men, sen, u, biz, siz, ular, o`z* olmoshlarining uslubiy imkoniyatlari haqida gapiring, misollar bilan izohlang.

**VI topshiriq.** Olmoshlar qatnashgan xalq maqollaridan misollar ayting. Ma`nosini izohlang.

**Masalan:** O`zingni er bilsang, o`zgani sher bil. Nima eksang shuni o`rsan.

**42-mashq.** Berilgan misollardagi olmoshlarning tuzilishi, turi, sintaktik

vazifasini aniqlang.

1. Hech kim telefon qilmadi, hech kim so'ramadi ham. 2. Darvoqe, o'sha rasm haqida eshitganmisiz ? 3. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim. 4. Xo'p, biz ketdik xola.

**VII topshiriq.** "Zanjir" o'yinini o'tkazing. Bunda olmoshlar qatnashgan she'riy parchalardan misol ayting. Qaysi guruh ayta olmasa, o'yindan chiqariladi. Oxirida qolgan guruh g'olib sanaladi.

Masalan:

*1-guruh:*

Yigitlar maktubin bitganda qondan,  
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,  
Uning ham panohi qaytmadi jangdan  
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u. (A.Oripov)

*2-guruh:*

Shukrona aytamiz oydin yo'limiz,  
Qayerga uzatsak yetar qo'limiz  
Hech kimdan kammas biz bugun dunyoda,  
Hech kimdan kam bo'lmas qiz-u o'g'limiz.  
(G' Shomurod)

*3-guruh:*

Men buyuk yurt o'g'lidirman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo'lsam  
Sodiq o'g'lon, o'zbekim. (E.Vohidov)

**43-mashq.** Rivoyatni o'qing. Nuqtalar o'rnida quyida berilgan olmoshlardan mosini qo'ying.

Hotam Asomdan notiqlik bilan shug'ullanishini iltimos qilganlarida, ... o'z bilimi va mahorati yetishmasligini aytib, rad etadi. Ammo el iltijo qilavergandan so'ng rozi bo'ladi, notiqlik san'atini egallash uchun bir yil muhlat oladi. Bir yildan so'ng ... sinash maqsadida adirga boradi va bir tup daraxt oldiga yaqinlashmoqchi bolganida, ... qushlar "gurr" etib uchib ketadi. ... ko'rgan notiq Balx aholisiga tayyor emasligini aytib, yana bir yil muhlat so'raydi. Ikkinchi yili yana ... yerdagi daraxt oldiga ... sinash maqsadida boradi. ... safar Hotam daraxtga yaqinlashib, qushlar qimir etmayotganliklarini ko'radi, ammo ... qo'l cho'zganida ... avvalgiday uchib ketadi.

Xalq Hotam Asomdan ... sinovdan maqsadini so'raganda, notiq: "Yovvoyi qushlarni ... rom etolmagan notiq insonlarning ko'nglini

yumshata olmaydi”, -deydi. Xalq Hotam Asomga yana bir yil muhlat beradi. Uchinchi yilni mutolaa bilan o`tkazgan notiq ... shu tariqa yana bir bor sinaydi. ... daraxtga yaqinlashib ... deb erkalatganida qushlar jim bo`ladilar, qo`l cho`zganida qushlar qimir etmaydi. Bir qushni qo`liga olib silab, so`ng qo`yib yuboradi va xalqqa qarab sinov tujanini bildiradi.

Tinglovchilar oldiga borib, nutq so`zlaydi va katta olqishlarga sazovor bo`ladi.

(Muhammad Majidiyning “Ziynat ul majolis” asaridan)

Qo`yilishi lozim olmoshlar: undagi, o`zini, u, buni, ularga, o`sha, bu, nimplardir, u, o`zini, bunday, o`ziga, ular.

**VIII topshiriq.** “Mening so`zim- mening ko`rkim” mavzusida ijodiy matn yarating. Unda olmoshlardan unumli foydalaning.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tarixiy olmoshlar (bul, shul, o`shal, ne, na, va h.k) ishtirok etgan badiiy parchalardan misolar ayting.
2. Kishilik va o`zlik olmoshining o`xshash va farqli tomonlarini izohlang
3. Ko`rsatish olmoshlarining morfologik tabiati haqida nimalarni bilasiz?
4. So`roq olmoshining sintaktik tabiati haqida gapiring. Misollar bilan izohlang.
5. Belgilash, bo`lishsizlik olmoshlari haqida ma`lumot bering.
6. Gumon olmoshi haqida gapiring.

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
4. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д.

Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарқ, 2001.

5. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

## 9-MAVZU: SINTAKTIK SHAKL HOSIL QILUVCHI KATEGORIYALAR

### Reja:

1. Egalik kategoriyasi
2. Kelishik kategoriyasi
3. Kesimlik shakllari, bog'lamalar

*Tayanch so'z va iboralar: egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, kesimlik (zamon, mayl, shaxs-son) shakllari, bog'lamalar.*

**I topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering.

1. Egalik shakllari haqida nimalarni bilasiz?
2. Egalik shakllari otdan boshqa turkum so'zlariga ham qo'shila oladimi?
3. Kelishik shakllarining tarixiy ko'rinishlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Kelishik va ko'makchi grammatik sinonimiyasini tushuntiring.
5. Zamon, shaxs-son, mayl shakllari haqida nimalarni bilasiz?

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar (egalik, kelishik, shaxs-son, mayl va zamon) barcha turkumlar uchun umumiy bo'lib, so'zning lug'aviy ma'nosiga mutlaqo ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lab, ularga ma'lum bir sintaktik vazifalar muayanlashtirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda yaratilayotgan darsliklarda mazkur shakllar sintaktik imkoniyati nuqtayi nazaridan yana ikki guruhga ajraladi:

- a) so'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi shakllar (kelishik, egalik);
- b) so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi shakllar (kesimlik shakllari).

Kelishik so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi aloqo-munosabat shakllaridan bo'lib, asosan, tobe so'zni hokimga bog'laydi. Kelishik kategoriyasi ma'lum shakllar orqali ifodalanadi va alohida bir paradigmani hosil qiladi.

Egalik shakllari esa qarashlilik, mansublik ma'nosini, ya'ni bir narsaning ma'lum shaxs yoki narsaga mansub ekanligini ifodalab, odatda, hokim so'z tarkibidan o'rin oladi.

Fe'lga mansub shaxs-son, zamon, mayl shakllari ham gapdagi so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Ular, ya'ni shaxs-son shakli ismlarga qo'shilib kelsa, bog'lamalar deb yuritiladi.

**44-mashq.** A.Oripovning “Izhor” she’rini o’qing, egalik shakllarini topib, izohlang.

Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,  
Qancha manzillarda tuzdim oshiyon.  
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,  
Siylangan joyida azizdir inson.

Yurtim, senda ekan nasibam tugal,  
Sen o’zing maskanim, sen o’zing shonim.  
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,  
Ey jonim, jahonim O’zbekistonim.

Ista, qismatimga o’zing ber barham,  
Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.  
Mensiz ham mukammal ekan bu olam,  
Mensiz ham baxtga yor ekan odamzod.

Yurtim, faqat sening qo’lingdan tutib,  
Bolangday ergashib keta olsam bas.  
Sen piri komilsan, men senga muhib,  
Seni tanimagan meni ham bilmas. (A.Oripov)

**II topshiriq.** Yuqoridagi she’rda egalik shakllari qaysi turkum so’zlarga qo’shilganini izohlang, sintaktik vazifasini aniqlang.

**III topshiriq.** Egalik shakllari mavjud she’riy misralardan yod ayting.

**IV topshiriq.** Badiiy asarlardan kelishik shakllar qatnashgan misollar toping, uni ko’makchi bilan almashtirib ko’ring, xulosa chiqaring.

Masalan: Tuman tushayotir qirlarga sokin,  
Do’rmon bog’larida billur qahraton. (A.Oripov)

...  
*Tuman tushayotir qirlarga sokin,  
Do’rmon bog’lari bo’ylab billur qahraton.*

**45-mashq.** Kelishik shakllari qo’shib kelgan so’zlarda qanday fonetik hodisa yuz berganligini izohlang.

1. Toki odamlar meni ko’rmasin, faqat mehnatimni ko’rishsin. (A.Muxtor) 2. Bunaqa narsa menga ta’sir qilmaydi, dedi Mastura. (A.Qahhor) 3. Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermoqqa majbur bo’ldim.(Oybek) 4. Sening xayolingni tongi

shabnamlar, Mehrdan so'ylashga ko'zingda namlar. (Zulfiya) 5. Mening og'am ichinda, Soqollari toshinda. (topishmoq) 6. Katta mutafakkir san'atkor [A.Qahhor] ning har bir asari o'ygga toldiradi. Kelajakka e'tiboringni qaratadi.(O' Umarbekov)

**V topshiriq.** Kelishik shakllarining uyushiq bo'laklar tarkibida kelishiga misollar toping, xulosa chiqaring.

**Masalan:** U turmushidan, o'tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi. (S.Zunnunova)

**VI topshiriq.** Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi so'z tarkibida yaxlitlanib qolgan quyidagi so'zlarni kuzating, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yoppasiga, surunkasiga, ko'tarasiga, uzunasiga, kunda, yaqinda, unda -bunda, zimdan, birdan, qo'qqisdan, to'satdan, ilqisdan.

Masalan: Oradan ikki kun o'tgandan keyin kechqurun Tesha to'satdan Saydiyning hujrasiga keldi. (A. Qahhor)

**VII topshiriq.** Badiiy asarlardan egalik va kelishik shakllari belgisiz kelgan so'zlar qatnashgan misollar yozing.

Masalan: Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. Donolar oldida doim eshitguvchi bo'l. ("Hikmatnoma"dan)

**46-mashq.** Berilgan misollar tarkibidagi kesimlik ko'rsatkichlarini topib, izohlang.

1. Fursat g'animatdir shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin. (G' G'ulom) 2. Yo'lchida Gulnor haqida ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi. (Oybek)

**VIII topshiriq.** Ot kesimlar tarkibida kelgan kesimlik ko'rsatkichlariga, ya'ni bog'lamalarga misollar toping.

**Namuna:** Dildorning bari gaplari haqiqat edi.(S.Ahmad)

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Egalik shakllari va ularning grammatik ma'nosi haqida gapiring.
2. Kelishik shakllari va ularning grammatik ma'nosi haqida gapiring.
3. Kesimlik shakllari va ularning grammatik ma'nosi haqida gapiring.

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи,

1973.

2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.

3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.

4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995.

5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.

6. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент. 2007.

## **10-MAVZU: YORDAMCHI SO'Z TURKUMI. KO'MAKCHI**

### **Reja:**

1. Yordamchi so'z turkumi
2. Ko'makchi uning o'rganilish tarixi
3. Ko'makchi va kelishiklar sinonimiyasi

***Tayanch so'z va iboralar:*** ko'makchi, ko'makchining o'rganilish tarixi, ko'makchi va kelishik sinonimiyasi.

Leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo'linadi: mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar. Bular orasidagi zidlanishni ma'naviy va vazifaviy nomustaqillik tashkil etadi. Bu oppozitsiya belgisiga ko'ra yordamchi so'zlar belgili a'zo mavqeini, mustaqil so'zlar belgisiz a'zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so'zlar hech qachon mustaqil qo'llanilmaydi, bog'liq qurshovlardagina kela oladi. Mustaqil so'zlar esa mustaqil qo'llanilish va ma'no ifodalash qobiliyatiga egadir.

Tilshunoslikda yordamchi so'zlarning leksemalar va qo'shimchalar orasida “oraliq uchinchi” bo'lib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'zida mujassamlashtirilishi aniqlanilgan.

Yordamchi so'zlar shakliy xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratib o'rganiladi:

- qo'shimchasimon yordamchi so'zlar;
- sof yordamchi so'zlar;
- yarim yordamchi so'zlar.

Turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida) ko'makchilar mustaqil so'zlardan kelib chiqqanligi aytiladi.

Ko'makchilar ma'nosi va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi



turlarga bo`linadi:

- a) sof ko`makchilar;
- b) vazifadosh ko`makchilar.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan *uchun, bilan, sayin, sari, qadar, kabi, singari, orqali* so`zlari sof ko`makchilar bo`lib, ular tobe so`zni hokim so`zga bog`lashga xizmat qiladi. Sof ko`makchilar boshqa so`zlarga birikkan holda turli munosabatlarni (sabab, maqsad, yo`nalish, atalganlik, chegara, tomon va h.k.) anglatadi.

Vazifadosh ko`makchilarga deb, deya, ust, ost, tag, boshqa, tomon, qarab, qaramay, ko`ra, boshlab, qarshi, tashqari, boshlab va h.k.lar mansubdir.

*Bilan* komakchisi quyidagi ma`nolarni bildiradi:

1) biror harakatning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligini bildiradi, 2) harakatni bajarishda vosita ma`nosini bildiradi, 3) payt ma`nosini ifodalaydi, 4) sabab ma`nosini bildiradi, 5) harakatning bajarilishidagi holatni ifodalaydi va b.

*Uchun* ko`makchisi atalganlik, maqsad, sabab kabi ma`nolarda qo`llanilib, to`ldiruvchi, maqsad holi, sabab holi vazifalarida keladi.

*Kabi, singari yanglig`* ko`makchilari bir narsani boshqa narsaga o`xshatish, chog`ishtirish ma`nosini anglatadi.

*Orqali* ko`makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi.

*Sari* ko`makchisi harakatning yo`naltirilgan o`rni, payti ma`nosini anglatadi va h.k.

Ko`makchilar mohiyatan kelishiklarga o`xshaydi, har ikkalasi ham so`zlarni munosabatga kiritadi. Ammo ulardagi ma`noviy farqlanish turlicha bo`ladi. Ko`pchilik ko`makchilar o`zaro o`rin almasha oladi: *kabi-singari-yang`lig`-misoli* kabi. Biroq ular usluban, qo`llanish doirasiga ko`ra farq qiladi.

**I topshiriq.** O`qing. Gap tarkibidagi yordamchi so`zlarni toping, turini aniqlang.

1. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. ("Fidokor") 2. Ko`lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitirayotgan ikki-uchta o`rdak ko`rindi. ( Mirzo Karim) 3. Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. (Yo`ldosh Sulaymon) 4. Qiz avval qo`rqdi, otasi uning Sidiqjon bilan so`zlashib turganini emas, boqqa tushganini bilsa ham, jingul ostida pusib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. (Abdulla Qahhor) 5. She`r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohoy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov)

**II topshiriq.** Berilgan gap tarkibidagi ko`makchilarni izohlang.

1. O`zi dumaloq, Qor kabi oq. (tuxum) 2. Kechagi gaplardan keyin qaysi

yuzi bilan boradi? (A. Muxtor) 3. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi. (O' Rashid)

**47-mashq.** Tarixiy asarlardan olingan quyidagi gaplar tarkibidan ko'makchilarni belgilang. Grammatik ma'no imkoniyatlarini tushuntiring.

1.Nodonlardek yuzta so'zni qilma qator, donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor. (S.Sheroziy) 2.Kishi so'z tufayli bo'ladi malik, ortiq so'z bu boshin etadi egik. (Yusuf Xos Hojib) 3.Sodiq ham o'lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik. (A.Qodiriy) 4.Samarqanddan qochib kelgan kishi bobida so'zlar bitilib erdi. (A.Navoiy) 5.Qilay Majnun kibi ko'nglumni xoli.(A.Navoiy)

**III topshiriq.** Sof va vazifadosh ko'makchilarga misollar yozing, "Yurtga fidoyi farzandlar kerak" mavzusida ko'makchilar qo'llangan ijodiy matn yarating.

**48-mashq.** Ko'makchi ishtirok etgan quyidagi maqollarni o'qing. Mazmunni tushuntirib bering.

- 1.Tinchlik bilan el ko'karar,  
Yomg'ir bilan yer.
2. Birov uchun birov qozon osmas.
3. Har ish qilsang, el bilan kengash.
4. Har qush o'z uyasiga qarab uchar.

**IV topshiriq.** Ko'makchi ishtirok etgan maqollardan misol ayting.

**49-mashq.** Quyidagi she'riy misralarni o'qing. Ko'makchilarning grammatik tabiatini izohlang.

Koinot gultoji insondir azal,  
Undadir eng oliy tafakkur, amal.  
Hatto u tubanlik *ichra* ham tanho,  
Yo falak, ijoding buncha mukammal. (A.Oripov)

Ko'ngil, sen bunchalar nega,  
Kishanlar *birla* do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen bunchalar sustlashding ? (Cho'lpon)

Taqdiringni qo'ling *bilan* yoz

Mening *bilan* qishni qilgin yoz

Erkinlikning osmonida uch,

Maqsad *sari* qanotingni yoz. (N.Nuriy)

**V topshiriq.** Berilgan misollardagi ko'makchilarni tegishli ko'makchilar bilan almashtirib ko'ring, ma'no nozikliklarini tushuntirishga harakat qiling.

1. Temur tig'i yetmagan joyni qalam *bilan* oldi Alisher. (A. Oripov) 2. O! Ho'kiz yo'q. Og'il ko'cha *tomondan* teshilgan. (A.Qahhor) 3. Muxbirimiz telefon *orqali* xabar berdi. ("Gazetadan") 4. Ikromjon xotinini qoldirib, o'zi idora *tarafga* ketdi. (S.Ahmad)

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Yordamchi so'zlarning umumiy xususiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
2. Ko'makchilarning ma'no imkoniyatlari (o'xshatish, qiyoslash, yo'nalish, chegara, sabab, maqsad) haqida nimalarni bilasiz?
3. Ko'makchilarning tarixi haqida gapiring.
4. Ko'makchilarning matndagi imkoniyatlari haqida gapiring.

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
4. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.
5. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари

филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент. 2007.

6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

7. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. – Тошкент: 1996.

## 11-MAVZU: BOG'LOVCHI

### Reja:

1. Bog'lovchi uning o'rganilish tarixi.

2. Bog'lovchi tiplari va turlari

*Tayanch so'z va iboralar. bog'lovchi, bog'lovchi tiplari, bog'lovchi turlari, teng bog'lovchi, ergashtiruvchi bog'lovchi.*

Bog'lovchilar ham ko'makchilar kabi so'zlarni bir biriga bog'lash vazifasini bajaradi.

Bog'lovchilar gap bo'laklari, qo'shma gapning qismlarini bog'lab keladi. Bog'lash turlicha amalga oshiriladi.

Bog'lovchilar ham o'z navbatida sof va vazifadosh turlarga bo'linadi. Sof bog'lovchilar guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoxud, yoki, chunki, negaki, agar, gar, basharti, ya'ni* kabi yordamchi so'zlar kiradi.

Qo'shimchasimon bog'lovchilar guruhiga *-ki (-kim)* va ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasida kela oladigan *-u (-yu), -da* qo'shimchalari mansubdir. *-u (-yu), -da* qo'shimchalari bog'lovchi vazifasida kelganda so'z va gaplarni biriktirib yoki zidlab bog'lab keladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bog'lovchilarning ma'no-vasifasi jihatidan turlari quyidagicha belgilangan:

I. Teng bog'lovchilar.

1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, -u (-yu), hamda.*

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq.*

3. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, goho, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan.*

II. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki (-kim).*

2. Sabab bog'lovchilari: *chunki, negaki, shuning uchun.*

3. Shart bog'lovchilari: *agar, agarda, agarchi, bordiyu.*

**I topshiriq.** Quyidagi savollarga atroflicha javob bering.

1. Bog'lovchilarning grammatik tabiati haqida nimalarni bilasiz?

2. Bog'lovchilar tarixi haqida gapiring

3. Bog'lovchi turlari haqida gapiring

4. Bog'lovchi va ko'makchining o'xshash va farqli jihatlari haqida nimalar bilasiz?

**II topshiriq.** Misollarda ishtirok etgan bog'lovchilarni tahlilga torting.

1. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra. (N.Aminov)  
2. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko'ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi. (S.Zunnunova)  
3. Kun botgan, lekin atrof hali yorug' edi. (O. Yoqubov)  
4. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o'xshaydi: goh to'lib, goh ozayib turadi. ("Inson baxt uchun tug'uladi" kitobidan)

Tahlil namunasi: *Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra.*  
**va** – vazifasiga ko'ra teng bog'lovchi, teng bog'lovchisining mazmuniy munosabatiga ko'ra biriktiruv bog'lovchisi, qo'llanilishiga ko'ra yakka bog'lovchi; misolda uyushiq bo'laklar vositasiz to'ldiruvchini bog'lash uchun xizmat qilgan.

**III topshiriq.** Bog'lovchilar qatnashgan quyidagi gaplarni davom ettiring. Bunda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, "Davomini top" o'yinini tashkil eting.

Kitob o'qish uchun barcha birdek shijoat topa olmaydi, biroq...

Ta'lim-tarbiya hayot bilan bog'liq bo'lishi kerak , agar ...

Mehr ko'zda deyishadi, chunki...

Ayrim paytlar qariyalar yoshlarni qoralaydilar, ammo...

Yaxshilik qilishga shoshil yoki ...

Dam yuragimni g'ashlik egallaydi, dam ...

Do'stimning achchiq haqiqatidin shuni angladimki, ...

Agar har bir kishi o'z vazifasini astoydil bajaradigan bo'lsa, ...

Farzandlarni suyib, erkalash yaxshi albatta, ammo ...

Onajon va buvijonlarimizni asrab-avaylashimiz shart, negaki ...

**50-mashq.** So'z so'zlash odobi bo'yicha quyida aytilgan fikrlarni ko'chiring, bog'lovchilarni toping va o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

1. Ey farzand, so'zing yuzin va orqasin bilg'il va ularg'a rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zing nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zining ma'nosini bilmas. (Kaykovus "Qobusnoma") 2. Nodonlardek yuzta so'zni qilma qator, donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor. (S. Sheroziy) 3. So'z joy-u vaqtiga bo'lar ekan mos, Sehri afsun uchun u bo'lar asos.(A.Jomiy) 4.Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshitguvchini ranjitar. (Zamaxshariy) 5. Kishi so'z tufayli bo'ladi malik, ortiq so'z bu boshni etadi egik. (Yusuf Xos Xojib)

**IV topshiriq.** O'qiyotgan badiiy asaringizdan teng bog'lovchilar ishtirok etgan parchalarni ko'chirib yozing, izohlang.

**V topshiriq.** Bog'lovchi ishtirok etgan she'riy parchalar ayting.

Masalan:

Yor istig'nosidan

O'lmasman-u, kuydim va lek –

Lobarim oldida nazmim

Bu qadar behol uchun. (E. Vohidov)

Tabiat chiroydan qismagan aslo,

Maftunkor qabog'-u qosh-u ko'zlaring

Husningday bo'lmabdi tarbiyang ammo,

Bunchalar sovuqdir gap-u so'zlaring. (G' Shomurod)

**VI topshiriq.** Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar tuzing, bog'lovchilarni izohlang.

**51-mashq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'ringa mos ergashtiruvchi bog'lovchi qo'yib ko'chiring.

1. Shunday bo'lmog'iga barcha asoslar bor edi, ... ular bir qishloqda o'sib-ulg'aygan edilar. (Murod Muhammad Do'st) 2. Til o'z vazifasini bajarmasa, qo'l ishga tushadi, ... insoniy munosabat o'rnini hayvoniy xatti-harakat oladi. (O.Muxtor) 3. ... yo'ldan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam, topilur davo. (Shukrullo) 4. Oltin qafas ichra ... qizil gul bitsa, Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish (A. Navoiy)

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Bog'lovchilarning nutq jarayonidagi ahamiyati haqida gapiring.
2. Bog'lovchilarning mazmun va vazifasiga ko'ra turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar qaysilar.
4. Bog'lovchisiz fikr ifodalash mumkinmi, siz nima deb o'ylaysiz?

### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
2. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
6. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент. 2007.

### **12-MAVZU: YUKLAMA**

#### **Reja:**

1. Yuklama, uning o'rganilish tarixi
2. Yuklamalarning tiplari va turlari

**Tayanch so'z va iboralar:** yuklama, yuklama turlari, kuchaytiruv-ta'kid,

*so'roq-taajub, ayiruv-chegaralov, o'xshatish-qiyoslash, gumon va inkor yuklamalar.*

Yuklamalar shakliy jihatdan turlicha bo'ladi:

1) qo'shimchasimon yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -gina(-kina, -qina), -oq (yoq).*

2) so'z shaklidagi yuklamalar: *nahotki, ham, faqat, xuddi, axir* va b.

Yuklamalar ma'no-vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. So'roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya.* Bu yuklamalar turli so'z turkumlariga qo'shib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan so'roq ma'nosidan tashqari taajjulanish, hayratlanish ma'nolarini ham ifodalaydi.

2. Ayirish-chegaralash yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina).*

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llaniladi.

3. Ta'kid yuklamalari: *-ku, -da, -u, -yu.* Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Oydan-da g'o'zaldir, kundan-da g'o'zai. (Cho'lpon*

4. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: *axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq).* *-oq, (-yoq)* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi.

5. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo, go'yoki.*

6. Inkori yuklamasi: *na...na.* Kimsandan na xat bor, na xabar. (O'. Hoshimov)

**I topshiriq.** Quyidagi savollar orqali yuklama bo'yicha bilimlaringizni sinab ko'ring.

1. Yuklamaning grammatik tabiati, vazifasi haqida nimalarni bilasiz?

2. So'z va qo'shimcha yuklamalar haqida gapiring.

3. Yuklamaning ma'no turlarini sanang

4. Yuklamalarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?

**II topshiriq.** Ibratli fikrlarda ishtirok etgan yuklamalarning ma'no imkoniyatini tushuntiring.

1. Kimki o'zga tillarni bilmasa, o'z tilini *ham* yaxshi tushunmaydi. (I. Gyote) 2. Muallifi faqat aytilishi lozim gaplarni lozim darajada ayta olgan kitoblarga *gina* yaxshi kitoblardir. (Arastu) 3. Garchi amalga oshirilmagan bo'lsa-*da*, ko'ngilga kelgan jinoyat baribir jinoyatdir. (Seneka) 4. Hamma narsada, *hatto* kamtarlikda *ham* me'yorni bilish kerak. (A. Frans) 5. Muttahamlarning shuning uchun oshig'i olchiki, ular halol odamlarga muttahamlardek munosabat qilganlari holda, halol



odamlar esa muttahamlarga *xuddi* halol odamlardek munosabatda bo'ladilar. (V.G. Belinskiy)

**III topshiriq.** E.Vohidovning "Surma" she'ridan olingan quyidagi parchada ishtirok etgan yuklamalarning ma'no turini aniqlang.

Ko'zda qaro na iz bul,  
Tun dog'idan asarmu,  
Mayxona kezdumu yo  
Mastonavor surma?  
Yor ko'ziga yetishmak  
Savdo ekan-ku dushvor  
Yonib ko'mir bo'libdi  
Bechora zor, surma.

**IV topshiriq.** Bog'lovchi mavzusidan bilimlaringizni eslab, -u,-yu,-da, na...na kabilar ishtirokida gaplar tuzing. Gapda yuklama yoki bog'lovchi ekanini izohlang. Sof va vazifadosh yuklama haqida ma'lumot bering.

**Masalan:** 1.*Na qo'shiq, na kulgu, na churq etgan ovoz eshitiladi.* (I.Rahim) 2. *Bozorvoy ming qo'yli boylar sirasiga kirsa-da, na uyida tayinli qozon qaynamas, na eshigidan birov kirib chiqmas edi.* (N.Qobul) Berilgan gaplarning birinchisida "na...na" bog'lovchi vazifasida kelgan, ikkinchi misolda "na...na" yuklama vazifasida kelgan.

**V topshiriq.** Badiiy asarlardan so'roq-taajub yuklamalariga misollar toping. So'roq ma'nosini olmosh so'zlar bilan ham hosil bo'lishini va ular orasidagi ma'noviy - uslubiy farqlanishni tushuntiring.

**Masalan:** *Darsga kim kelmadi? – Darsga kelmagan bormi?*

**52-mashq.** Ayiruv-chegarolov, kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari qatnashgan quyidagi gaplarni o'qing. Yuklamalarning matndagi imkoniyatlarini izohlang.

1.Kishi agar faqat o'z-o'zi bilan yashashga majbur bo'lsa va faqat o'zi haqida o'ylasa, u behad azob chekishi muqarrar. (B.Paskal)  
2.Qat'iyatgina muvaffaqiyat garovi bo'la oladi. (Arastu) 3.Ahmoq faqat yuz bergan hodisanigina tushunadi. (Gomer) 4.O'zini aqlli ko'rsatishga uringan ahmoqdan ham ko'ra xatarliroq kimsa yo'q. (I.Gyote) 5.Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal. (Cho'lpon) 6.Biz haddan ziyod ko'p o'qiymiz, shu qadar ko'p o'qiymizki, hatto eshitishni unutib qo'yamiz. (J. Stefens) 8.Oshiqlik ishi yomon ekan-ku, Oshiqqa baloyi jon ekan-ku. (E.Vohidov)

**VI topshiriq.** O'xshatish-qiyoslash yuklamalarini qo'llab tasviriy matn

yarating.

**VII topshiriq.** Quyida berilgan gaplardan gumon va inkor yuklamalarini topib izohlang.

1. Sen qaydan bilasan,

Balki, yulduzlar

Menga sirlarini

So'ylayotgandir.

2. Badantarbiya tibbiyotning shifobaxsh tarkibidir. (Aflotun) 3.Sen o'zingning eson-omonligingni tilasang, tilingdan zinhor yaramas so'zlarni chiqarma (Yusuf Xos Hojib) 4.Kishini go'zal qilib turadigan uning chiroyi emas, balki chiroyli xulqidir. (Xurramiy)

5. Har mushkulga bardosh berar,

Chidar mening tosh boshim,

Ammo sokin, tinch yashashga

Sira yo'qdir bardoshim. (E.Vohidov)

6. Ko'nglimni tutolmas na ov, na o'yin,

Nimadir izlardim, bilmayman o'zim. (Mirtemir)

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Yuklamalarning tarixiy shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

2. Yuklama borasida qaysi tilshunos olimlar tadqiqotlar amalga oshirgan?

3. Yuklama ma'no jihatdan qanday turlarga bo'linadi?

4. Sof va vazifadosh yuklamalar haqida gapiring .

5. Yuklamalar modal so'zlarga qaysi xususiyatlariga ko'ra o'xshaydi?

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.

2. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005.

3. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013.

4. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарқ, 2001.

5. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.

6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

### 13-MAVZU: SO'Z-GAPLAR

#### Reja:

1. So'z - gaplarning o'rganilish tarixi
2. So'z - gaplarning matndagi semantik-grammatik tabiati

**Tayanch so'z va iboralar:** *so'z-gap, modal so'z, undov so'z, sof modal so'z, vazifadosh modal so'z, his-hayajon undovi, buyruq-xitob undovi.*

So'zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatini — qat'iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalab keladigan so'zlar modal so'zlardir. Ularga *xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli* kabi so'zlar misol bo'ladi.

Kishilarning his-tuyg'ularini, haydash, to'xtatish kabi xitoblarni, buyruqlarni ifodalaydigan so'z-gaplarning ko'rinishi undov so'zlardir. His-tuyg'u undovlariga *oh, voy, eh, barakalla, rahmat, ofarin* kabi so'zlar, buyruq-xitob undovlariga *pisht, beh-beh, pish-pish, chuh* kabi xitob so'zlar kiradi.

So'z-gaplarning uchinchi ma'naviy guruhi bo'lgan tasdiq/inkor so'zlar ko'pincha modallar tarkibida o'rganilgan. *Ha, mayli, xo'sh, xo'p* so'zlari tasdiqni, *yo'q, mutlaqo, aslo, sira* so'zlari inkorni ifodalovchi so'z-gaplardir. Taklif/ishora so'zlarga qo'llanishi tana a'zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan *ma, mang, qani, marhamat* so'zlari kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

So'z-gaplar shunday hodisalar guruhiki, ularning juda ko'pchiligi boshqa so'z turkumlaridan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos nutqiy qo'llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, *so'zsiz, tabiiy* so'zlari sifatdan, *albatta* ravishdan o'sib chiqqan bo'lsa, *har qalay, har holda* modal so'zlari so'z birikmalaridan, *nasib bo'lsa, xudo xohlasa* kabilar gaplardan kelib chiqqan. Sof so'z-gaplarga *albatta, alhamdulillah; eh, hoy, oh, o'h; ha, yo'q, mutlaqo; ma, mang* kabi modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so'zlari mansubdir.

So'z-gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularning kesimlik qo'shimchalarini qabul qilmasligi, bog'lama bilan birika olmasligidadir. So'z-gaplar ham undalmalar, sodda gaplar kabi kengaygan yoyiq holatlarda bo'lishi mumkin.

I topshiriq. Sintaksisda so'z-gap bo'la olish imkoniyatiga ega bo'lgan

undov, modal soʻzlar boʻyicha quyidagi savol va topshiriqlar asosida bilimlaringizni sinab koʻring.

1. Undov va modal soʻzlarning shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz ?
2. Undov soʻzlarning maʼnosiga koʻra turlarini soʻzlang.
3. Modal soʻzlarga taʼrif bering.
4. Sof va vazifadosh modal soʻzlar haqida nimalarni bilasiz?

**II topshiriq.** Quyida berilgan misollardagi undov va modal soʻzlarni topib, matndagi imkoniyatini izohlang.

1. Tabiatga deydik tashakkur, bosh egaylik unga, albatta. (E. Vohidov)  
O! Hoʻkiz yoʻq, ogʻil koʻcha tomondan teshilgan. (A.Qahhor) Men yetim oʻsganman, oh u yetimlik. Voy bechora jonim, desam arziydi. (Gʻ. Gʻulom) 4. Oʻ, telba xotin, nega zarda qilasan. (A Qahhor) Boboxoʻja domla hamma vaqt bir xilda oʻqitar, bir xilda yozdirar, ishqilib, bir amallab vaqtni oʻtkazar edi. (A. Tursun) Shu yer, shu Quyoshga boʻlsinki qasam, Albatta, sen buyuk olim boʻlursan! (E.Vohidov) – Balli, ona qizim, dedi Melivoy aka zavqlanib. (S. Ahmad)

**53-mashq.** Quyida berilgan soʻzlarda “voy” undovi qanday maʼnolar ifoda etganligini tushuntiring.

1. Men uning qoʻlini qattiqroq qisdim. Mahbuba “voy” deb yubordi. (O.Yoqubov) 2. Bu nima? Voy, qulogʻingiz orqasi ham ozgina qonabdi, - dedi Gulnora qoʻrqib. (Oybek) 3.“Voy shaytonlar, rosa oʻxshatibdi”, dedi-da, jimgina tomoshaga berildi. (Oybek) 4.Kechqurun koʻcha eshigi taqilladi-yu, kampirning “voy oʻrgilay, voy girgitton” degan tovushi eshitildi. (A. Qahhor)

**III topshiriq.** “Kutilmagan uchrashuv” mavzusida dialog tuzing, unda soʻz-gaplardan foydalaning.

**IV topshiriq.** *Haqiqatan, afsus, attang, albatta, avvalo, xullas, koshki, masalan, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi modal soʻzlari ishtirokida gaplar tuzing. Ular anglatgan maʼnolarni izohlang.

**54-mashq.** Misollarda keltirilgan modal soʻzlarning maʼno ifodasini kuzating.

1.Balki, mahallasidan ham xotinlar kelgandir. (S. Zunnunova) 2.Shu yer, shu Quyoshga boʻlsinki qasam, Albatta, sen buyuk olim boʻlursan! (E. Vohidov) 3. Bu obrazning prototipi ham bir edi, afsuski, bu hikoya tugallanmay qoldi. (Q.Qahhor) 4.Aftidan, ular endigina zavoddan chiqqan boʻlsa kerak, boʻyoq isi guppillab dimoqqa urib turibdi. (N.Rahim)

**V topshiriq.** Berilgan misollardagi modal soʻz va boshqa turkumiga oid soʻzni aniqlang. Modal soʻzlar haqida, uning vazifasi borasida fikrlaringizni bayon eting.

1. Qoʻrquvdan katta-katta ochilgan koʻzlarida afsus va mehrga oʻxshash bir ifoda jonlandi. 2. Afsus, men bunday boʻlishini kutmagan edim. (Gazetadan) 3. Balki, kutar meni bir qiz, koʻzyoshlari oqiziq. (Qoʻshiqdan) 4. Yolgʻiz oʻzi emas, balki butun kosib ahlining ahvoli pachava ekanini ochib tashladi. (Oybek) 5. Uni eng qattiq qoʻrqitgan narsa bu suratning bosqinchilar qoʻliga tushub qolishi ehtimoli edi. (P. Qodirov) 6. Sherbek oʻshanda hol soʻrab, ehtimol, xato qilgandir. (S. Anorboyev) 7. Oʻzbekiston rassomlari erishgan muvaffaqiyatlar shubhasiz. (Gazetadan) 8. Men birinchi navbatda tarbiyani ota-onamdan olganman va ularning xislat va xususiyatlari, shubhasiz, menga taʼsir qilgan. (S. Ayniy)

**VI topshiriq.** Modal soʻzlar ishtirok etgan sheʼriy misralarga misollar keltiring.

Masalan:

Bilmam, qanday ayol boʻlgan

Alisherning onasi

Balki, uning aqliga ham

Lol qolgan zamonasi. (A. Oripov)

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Modal va undov soʻzlar nega soʻz-gaplar mavzusida oʻrganiladi?
2. Nutq jarayonida soʻz-gaplarning ahamiyati qanday?
3. Soʻz gaplarni qaysi tilshunos olim oʻrgangan?

#### **ADABIYOTLAR :**

1. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2014.
2. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2017.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002.
6. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: 2010.

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	.....
LEKSIKOLOGIYA BO'YICHA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR.....	.....
So'z qudrati.....	.....
So'z tanlash va qo'llash mahorati.....	.....
So'z ma'nosining taraqqiyoti.....	.....
Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar tavsifi.....	.....
So'zlarda hissiy-ta'siriy munosabat ifodasi.....	.....
GRAMMATIKA BO'YICHA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR.....	.....
So'z turkumlarining tasni.....	.....
Fe'l so'z turkumi.....	.....
Ot so'z turkumi.....	.....
Sifat so'z turkumi.....	.....
Son so'z turkumi.....	.....
Ravish so'z turkumi.....	.....
Taqlid so'z turkumi.....	.....
Olmosh so'z turkumi.....	.....
Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.....	.....
Yordamchi so'z turkumi. Ko'makchi.....	.....
Bog'lovchi.....	.....
Yuklama.....	.....
Alohida so'z turkumlari (So'z-gaplar).....	.....